

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Qarshi davlat universiteti

Filologiya fakulteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida

**“Himoyaga tavsiya etilsin”**

Filologiya fakulteti dekani

\_\_\_\_\_ f.f.f.d. R.Jumayev

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019- yil

**MAXMADMURODOVA DILDORA ABDURASUL QIZINING**

“5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)”  
ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

**ONA TILI TA'LIMIDA MADANIY NUTQ VA  
UNI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY SIFATLAR**

mavzusida yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Talaba \_\_\_\_\_ **D.Maxmadmurodova**

Ilmiy rahbar \_\_\_\_\_ **f.f.n.O.Shukurov**

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019- yil

**“Himoyaga tavsiya etildi”**

O'zbek tilshunosligi kafedrasida mudiri

\_\_\_\_\_ dots. B.Bahriddinova

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2019-yil.

QARSHI – 2019

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. Nutq madaniyatini shakllantirish ona tili ta'limining muhim vazifasi sifatida	
1.1. Ona tili ta'limining dolzarb muammolari va yechimlar.....	5
1.2. Nutq madaniyati va unga qo'yiladigan talablar.....	22
II BOB. Ona tili ta'limida madaniy nutqni shakllantiruvchi muhim omillar	
2.1. Madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlari .....	37
2.2. Ta'lim jarayonida madaniy nutqni shakllantirish usullari.....	56
XULOSA.....	64
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati .....	66

## KIRISH

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim ona tili darsliklarida o'quvchilarning til ilmini o'rgatuvchi mavzulari nazariyaga asoslanib qolgan. Qisman, fonetika, leksikologiya, asosan, grammatika (morfologiya va sintaksis) bo'limlari chuqur nazariy ma'lumotlarga asoslanib qolgan. Natijada, o'quvchilar ona tilining eng muhim vazifasi bo'lgan og'zaki va yozma nutq sirlarini – fasohatli so'zlash va o'sha fikrini yozma shaklda bayon eta olish malaka va ko'nikmalarini to'liq egallay olishmayapti.

Mazkur ish shu masala yechimi, madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlarni o'rganishga qaratilgan. Aniqrog'i, o'quvchilarning til ilmi hodisalaridan foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatib berish ishning dolzarbligini ko'rsatadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ona tili fanining asosiy maqsadi to'g'ri va ravon so'zlaydigan, bexato yozadigan savodxon shaxsni yetishtirish ekan, ishimizning maqsadi ham shunga mos umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim ona tili darsliklaridagi madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlarni o'rganishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim va tajribalarni to'plash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallikni namoyon qilish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning barchasi muhim. Shuning uchun tilni faqat va faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish to'g'ri bo'lmaydi. Ishimizning vazifasi o'quvchilarga ta'sirli nutq – madaniy nutq tuzish malakalarini o'rgatish va uni amalda qo'llashdan iboratdir.

**Mavzuning o'rganilish darajasi.** Tilshunoslarimizdan N.Mahmudov, M.Mirtojiyev, E.Begmatov, E.Qilichev, A.Rustamiy kabi olimlar tomonidan o'zbek tilida nutq madaniyati va uni egallash masalalari bilan bog'liq hodisalarni ilmiy holatda o'rganish bo'yicha yetarli tajribalar bor<sup>1</sup>. Lekin maktab o'quvchilari uchun

---

<sup>1</sup> Mahmudov N., Mirtojiyev M. Til va madaniyat. –T: O'zbekiston, 1992. - 110 bet; Begmatov. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T.: Fan. 1985. 220 bet; Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. Toshkent: Ma'naviyat, 1999. 64 bet; Jumaxo'jayev A. Istiqloq va ona tilimiz. - T.: Sharq, - 1998. – 158 bet; Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. –T.: O'qituvchi, 1992. 144 bet; Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar, –T.: Ma'naviyat, 2003. 112 b.

madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlarni ko'rsatib beradigan manba yo'q. Biz professor N.Mahmudovning<sup>1</sup> nazariy qarashlari asosida madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlarni o'quvchilarning yoshi va madaniy saviyasiga mos ravishda misollar asosida o'rganishga harakat qildik.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

– umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim bo'g'ini ona tili darsliklarida nazariy ma'lumotlarga haddan tashqari zo'r berilgani, buning oqibatida tilni amalda qo'llash hodisasi nazardan chetdan qolgani darsliklardagi ma'lumotlar asosida asoslab berildi;

– nutq madaniyatini shakllantirish ona tili ta'limining muhim vazifasi sifatida belgilandi;

– ona tili ta'limida madaniy nutqni shakllantiruvchi muhim omillar ilmiy-uslubiy jihatdan o'rganildi;

– madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlari ta'limiy asosda izohlab berildi.

**Tadqiqotning predmeti** o'quvchilarni madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlarni egallashga o'rgatishdan iborat.

**Tadqiqotning obyektini** esa umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim ona tili darsliklarida o'rganilishi talab etiladigan madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlarni tashkil etadi.

**Tadqiqotning ilmiy ahamiyati.** Tadqiqot nutq madaniyati bilan shug'ullanishni maqsad qilgan yosh ilmiy tadqiqotchilar, iqtidorli talabalar uchun ilmiy jihatdan dastlabki manba vazifasini o'tashi mumkin.

### **Tadqiqotning amaliy ahamiyati:**

– maktab o'qituvchilari uchun ona tili darsligiga qo'shimcha ravishda metodik qo'llanma bo'lib xizmat qiladi;

– maxsus kurslar tashkil etishda, interfaol usuldagi ochiq va muammoli darslar tashkil qilishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Natijalarning e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 1 ta tezis e'lon qilingan.

**Ishning tuzilishi va tarkibi.** Tadqiqot kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, **hajmi 69 sahifa (16516 so'z)ni** tashkil etadi.

---

Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati –T.: O'qituvchi, 2009. 188 bet.

## **I BOB. Nutq madaniyatini shakllantirish ona tili ta'limining muhim vazifasi sifatida**

### **1.1. Ona tili ta'limining dolzarb muammolari va yechimlar**

Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim-tajribalarni to'plash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallikni namoyon qilish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarning barchasi muhim. Shuning uchun tilni faqat va faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish to'g'ri bo'lmaydi. Biz o'quvchilarni ta'sirli nutq – madaniy nutq tuzish malakalari va uning asosiy tushunchalarini egallashga o'rgatishimiz zarur.

Har bir jamiyatning o'z davrida oldiga qo'ygan yangicha maqsad va vazifalari, yechimini kutayotgan dolzarb muammo va masalalari bo'ladi. Bu muammo va masalalarning tadqiqi va yechimini, avvalo, tegishli soha bilan shug'ullanuvchi fan o'z zimmasiga oladi. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrleydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", – deya ta'kidlagan fikrlari alohida ahamiyatga ega<sup>1</sup>.

Nutqning madaniyligini ta'sir quvvatini ta'min etadigan *to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik* kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi.

Har qanday nutq, avvalo, to'g'ri bo'lishi zarur. Ammo to'g'rilik sifatigagina ega bo'lgan, boshqa sifatlardan tamoman mahrum bo'lgan nutqni madaniy sanab bo'lmaydi. Ayni paytda nutqning madaniyligini ta'minlaydigan boshqa kommunikativ sifatlarni ham mazkur to'g'rilik sifatisiz tasavvur etishning imkoni yo'q. Shuning uchun ham to'g'rilik nutq madaniyatining birlamchi, ilk bosqichi hisoblanadi. Shubhasizki, *nutq madaniyatining oliy bosqichi sanaladigan aniqlik,*

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. 16-bet.

*mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik kabi sifatlarning* har birini yetarli darajada idrok qilish va ularni nutqda namoyon qila bilish madaniy nutqqa chinakam sohiblikning, shaxs nutqiy kamolotining zaminini tashkil etadigan jihatlardir.

“Obyektiv olam sistema ekan, ongda aks etgan bu sistemaning tilda ifodalanishi ham sistemalilikni namoyon qiladi. Til ontologik (ichki tuzilish) jihatidan ko‘p sathlilik xususiyatiga ega bo‘lib, uning har bir sathi sistemalilikka amal qiladi. Jumladan, leksik sath butun va bo‘lak, kull va juzv dialektikasini o‘zida aks ettirgan holda, muayyan leksik-semantik guruhlar munosabatidan tashkil topgan sistemadir”.<sup>1</sup>

Tildan bermalol, maqsadga va nutqiy vaziyatga muvofiq tarzda foydalana olish, nutqda kommunikativ sifatlarning barchasini mujassamlashtira bilishni ta‘minlaydigan ko‘nikma, malaka va bilimlarni o‘zlashtirishda o‘quvchilarga o‘qituvchi va unga mos adabiyotlarning o‘rni muhimdir.

Davlat ta‘lim standarti talabiga ko‘ra umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida ona tili fanidan o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar uch yo‘nalishdagi ko‘rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

Birinchi ko‘rsatkich o‘qish texnikasi bo‘lib, bu orqali o‘quvchining notanish matnini ifodali o‘qiy olish ko‘nikmasi aniqlanadi.

Ikkinchi ko‘rsatkich o‘zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi bo‘lib, bu talab bolaning og‘zaki bayon qilinayotgan fikrni hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan.

Uchinchi ko‘rsatkich esa fikrni yozma shaklda bayon etish malakasidir. Ta‘kidlash lozimki, ona tili ta‘limining maqsadi shu yo‘nalishda mujassamlashadi.

Ma‘lumki, DTS talablari darajasida o‘quvchilarga bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil qilish ko‘p jihatdan dars mashg‘ulotlarining samarali tashkil etilishida ko‘rinadi. Dars samaradorligi esa o‘qituvchining unga tayyorgarlik ko‘rishiga bog‘liq. Puxta tayyorgarlikka asoslangan dars qiziqarli o‘tadi va ko‘zlangan maqsadga erishiladi. O‘qituvchi darsga tayyorlanar ekan, avvalo, darsning maqsadini

---

<sup>1</sup> Iskandarova Sh. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni): Filol. fan. nomz. ... dis. avtoref. – T., 1999. -B. 7.

puxta o'ylab ko'rmog'i lozim. Mashg'ulotning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari aniq, ammo ularni o'zaro uyg'un holda qanday qilib amalga oshirish yo'llari belgilanmasa, samaradorlikka erishib bo'lmaydi. Darsning metodini to'g'ri tanlash ham dars samaradorligini ta'minlovchi omillardan hisoblanadi. Dars metodini tanlashda o'qituvchi o'quvchilarning real o'quv imkoniyatini, o'rganiladigan mavzuning talabini ham hisobga oladi. Ta'limning bu jihati o'qituvchidan puxta nazariy bilim va pedagogik mahorat talab etadi. Jumladan, o'qituvchi darsni turli metodlardan foydalangan holda tashkil etar ekan, ayniqsa, yangi bilim beruvchi darslarda ko'proq muammoli o'qitish metodiga asoslanishi, qayta xotirlash xarakteridagi topshiriqlardan ham, ijodiy xarakterdagi topshiriqlardan ham foydalanishi lozim. Shuningdek, darsga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchi darslikdagi qaysi mashqlardan foydalanishini, mashq shartlariga qanday qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar kiritishi mumkinligini rejalashtirishi kerak.

O'tgan asrning yarmigacha jamiyatda hali adabiy til me'yorlari o'rnashmagan bir paytda jamiyat a'zolarini u bilan qurollantirish zarurati ilk maktab partasidan to uni tugatguncha til qurilishini o'qitishni taqozo qilgan. Zero, adabiy tilni singdirishning eng asosiy yo'li til qurilishiga doir bilimlar bilan qurollantirishdir. Biroq asrning ikkinchi yarmida adabiy til qo'llanishi shart bo'lgan barcha sohalarda u to'la o'rnashib bo'lgandan keyin bu zarurat an'ana ko'rinishini oldi. Diqqat qilinsa, bugungi ona tili ta'limi faqat lingvistik takroriylikdan iborat. Boshlang'ich sinfdagi lingvistik ma'lumotlar tayanch sinflarda chuqur, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida yanada chuqurroq qilib, uch marta qaytarib o'qiladi. Bu takroriylik ham vaqt, ham mablag' jihatidan qanchalar qimmatga tushayotganligini o'ylab ko'rish kerak. Holbuki, yangi davrda ona tili darslari faqat adabiy til ta'limi bilan cheklanib qolishi mumkin emas. Menimcha, amaldagi ona tili ta'limini davr talablaridan kelib chiqib tubdan isloh etish zarur. Ona tili darslari "sovuq" tilshunoslik emas, balki tom ma'nodagi jonli va go'zal til saboqlariga, so'zshunoslikka, madaniy nutq, madaniy muloqot mashg'ulotlariga aylanmog'i lozim.

Yangi davr masalaga yangicha yondashuvni taqozo etadi. Ma'lumki, har qanday moliyalash uning qanday samara berishi ko'zlangan holda amalga oshiriladi.

Tom ma'nodagi zamonaviy ta'limda tilshunoslikning ilmiy masalalariga doir qoidalar keskin qisqartirilib, uncha chuqurlashtirilmagan lingvistik ma'lumotlar tafakkur, nutq o'stirish amaliyoti "soyasida" bo'lishi, unga xizmat qilishi, o'quvchining miyasi zinhor samarasiz lingvistik qoida, idroki til qurilishiga doir mashqlar bilan band etilmasligi maqsadga muvofiq.

Keyingi paytda tilni sistema sifatida o'rganish, til sathlarini substansial yo'nalish asosida tahlil qilish yetakchi mavqeni egalladi. XX asrning boshi va o'rtalarida o'zbek madaniyati va fani uchun juda zarur bo'lgan, o'zbek substansial tilshunosligi uchun tayanch vazifasini o'tagan formal tilshunoslik, asosan, ommaviy savodxonlikni ta'minlash, zamonaviy adabiy til me'yorlarini ishlab chiqish, adabiy til me'yorlarini ommalashtirish kabi o'ta muhim masalalar yechimi bilan shug'ullangan bo'lsa, substansial tilshunoslikning oldida turgan vazifa esa tilning ichki imkoniyatlarini va uning voqelanish usullarini o'rganish va o'rgatish hisoblanadi<sup>1</sup>.

"Ma'rifat" gazetasining 2018- yil 18- may sonida "Davr va ona tili ta'limi muammolari" nomli maqola nashr etilgan edi. Bu maqola ona tili ta'limi masalasidagi davra suhbat shaklida bo'lib, suhbatni Husan Karvonli va Dilmurod Do'stlar yozib olishgan. Unda ona tili ta'limining muammolari va yechimlari haqida nufuzli tilshunos olimlar o'z munosabatlarini bildirishgan. Ya'ni filologiya fanlari doktorlari, professorlar – Miraziz Mirtojiyev, Nizomiddin Mahmudov, G'anijon Zikrillayev, Baxtiyor Mengliyev, amaliyotchi o'qituvchilar – Sharofat Toshmirzayeva (Xalq ta'limi vazirligi tasarrufidagi filologiya fanlariga ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi), Shodiyor To'rayev (Qo'shrabot tumanidagi 35-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi), Sanobar Abdurahmonova (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Mingbuloq tuman bo'limi rahbari), Dilnoza Berdiyeva (Kitob tumanidagi 1-IDUMI oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi) lar o'z fikrlari bilan qatnashishgan.

Biz ham shu masaladan kelib chiqib, ustoz tilshunoslarning fikrlari va kamtarona o'z shaxsiy munosabatlarimizdan kelib chiqib, mavzuga yondashamiz.

---

<sup>1</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B 3-5.

Davr ona tili darsliklaridan yoshlarimizga til qurilishi haqidagi bilimni emas, balki tom ma'noda ona tili imkoniyatini egallash mexanizm va usullarini berishni taqozo etmoqda.

Istiqlol yillari ona tili ta'limi maqsadi, mazmuni, usul va vositalari tubdan isloh qilindi. Yangi alifbo, u asosda yangi imloning qabul qilinishi, tilshunoslikdagi yangilik va kashfiyotlarning ta'limga joriy etilishi samarali natijalar bermoqda. Oddiygina 1 soatlik dars reja-konspekti (ishlanmasi) uchun qo'yilgan talabga ko'ra, har bir mavzuning avval ta'limiy, keyin tarbiyaviy, qolaversa, rivojlantiruvchi maqsadlari yoritilishi kerakligi o'qituvchining o'z ustida ishlashi zarurligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchi psixologiyasini, yosh xususiyatini hisobga olgan holda mavzuni singdira olish qobiliyatiga ega bo'lishi ham zarur. Demak, o'qituvchi ona tili, adabiyot darslarida yangi DTS talablariga ko'ra olingan bilim, ko'nikma, malakalarni kompetensiyaga aylantirishi uchun vositachi bo'lishi kerak. O'quvchi ona tili va adabiyotdan egallagan bilimlarini kelajakda zarur o'rinda qo'llay olsin. Ta'limga har xil yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullar joriy etilmoqda. Natijada, o'quvchi mavzuni tushunib, anglab, o'zi va guruhdoshlarining xatolarini tuzatib bormoqda.

Istiqlol yillaridagina ona tilidan ta'lim mazmuni, maqsadi va usuli masalasi kun tartibiga qo'yildi va hal etildi. Bu ulkan yangilik bo'ldi. Ta'lim mazmuni ona tilining tabiatidan kelib chiqilgan nazariy bilimlar silsilasidan tashkil topdi. Ta'lim maqsadi "o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini takomillashtirish, fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri ifodalash malakasini shakllantirish" mazmunini oldi. Ta'lim usuli esa reproduktiv (qayta bayon qilish)dan kognitiv-pragmatik (mustaqil va ijodiy fikrlash va uni nutq sharoitiga mos ifodalash)ga o'tdi. Buni ona tili ta'limi tarixidagi bemisl hodisa sifatida baholash mumkin.

Albatta, har qanday muammoning yechimi yangi muammolarni vujudga keltiradi. Aslida, taraqqiyot mantig'i mana shunda. Ona tili ta'limi ham bundan mustasno emas. Keraksiz nazariy masalalarga behad chuqur kirib ketilganligi, grammatika ta'limiga ustunlik berilib, so'z ta'limi keyingi o'rinlarga tushib

qolganligi, darsliklardagi xatoliklar, nazariy chalkashliklar, o'quvchi egallagan ko'pgina bilimlarning aslida kompetensiyaviy mohiyatga ega emasligi kabilar bugun ona tili ta'limidagi muammolardandir.

Istiqlol farzandining ta'lim-tarbiyasi, jumladan, ona tili ta'limi murakkab va serqirra jarayon, uni davr talablariga javob beradigan darajada amalga oshirish ko'p omillarga bog'liq. Bunda davlat siyosati(davlat tomonidan yaratilgan shart-sharoit), o'quv qurollari(darslik, qo'llanma sifati, saviyasi), ularning mazmunini o'quvchi ongiga singdirishda qo'llanadigan usul va vositalar(texnik, ashyoviy va hokazo), ta'limni amalga oshiradigan shaxs (o'qituvchi)ning kasbiy mahorati, shaxsiyati(jonkuyarligi, vijdoni va hokazo), o'quvchining qobiliyati(zehni, xotirasi), uquvi, tarbiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Darsliklarimizda tilimizning turkona tabiatiga xos bo'lmagan qoidalar ham yashab kelayotgani yaxshi emas. Ulardan voz kechish kerak. Tilimiz qat'iy qoliplarga ega. Masalan, ona tili darsliklarida biror qoida tushuntirib kelinadi-da, eslatma deb unga "sig'maydigan" ba'zi "istisno" holatlar keltiriladi. Holbuki, o'zbek tilining fonetik, morfologik, sintaktik, leksik qonuniyatlari juda qat'iy. O'zbek tilining o'ziga xos qonuniyatlarini sof saqlashimiz, darsliklar mazmunini shu jihatdan takomillashtirib, istisnolardan xalos qilib borishimiz kerak.

Keyingi yillari bir necha marta DTS ishlab chiqildi va ulardagi minimumlar bajarilsa-bajarilmasa, bosqichma-bosqich bosib o'tildi. Ona tili ta'limi DTSda belgilanganidan boshqacha tus oldi – lingvistik bilimlarni puxta egallagan tilshunosni tarbiyalash(maqсадning o'zgarishi), oddiy tushunchalarni ilmiy murakkablikda ifodalash(mazmunning o'zgarishi), deduksiyadan induksiyaga "prinsipi"dan teskarisiga – "induksiyadan deduksiyaga" tartibida fikrlashga o'rgatish(ta'lim usulining o'zgarishi)ga o'tildi, ta'limga darslikdan boshqa yordamchi o'quv vositalari(lug'atlar, qomuslar va hokazo) joriy etilmadi. Natijada nazariya va amaliyot bir-biridan teskari ikki qutbga qarab shiddat bilan uzoqlashdi. Ona tili ta'limining o'zak masalasi – savodxonlikka putur yetdi. Avval ko'cha-ko'yda afishalarda bo'y ko'rsatgan savodsizlik nashriyot eshiklarini-da buzib kirib o'z hukmronligini o'rnatdi. Darslik va lug'atlardagi xatoliklar odatiy holga aylandi,

o'quvchilar savodi darajasini tekshirishga mo'ljallangan diktant va bayonlar to'plamlaridan tahrirsiz – xatoliklarini tuzatmasdan foydalanib bo'lmay qoldi.

Borliqda turli narsa va hodisalar keng qamrovli va rang-barang. Shu sababli har bir narsa va hodisalarni o'zaro o'xshash va farqli belgilari asosida tasniflash, aniqroq qilib aytganda, muayyan tizim va uning tarkibidagi birliklarning o'rni va mavqeyini belgilash sistemaviy tadqiqotlarning asosini tashkil etadi. Tasniflash ilmfanda nihoyatda muhim ahamiyatga ega. To'g'ri tasnif hodisalar va ularning mohiyatini aniq belgilash, to'g'ri yoritish imkonini yaratadi, shunga yo'l ochadi<sup>1</sup>.

Tasnif uchun manba (asos) bo'lgan narsa va hodisalar majmui butunlik, tizim, to'plam kabi atamalar bilan yuritiladi: O'rganish uchun olingan turli narsa, voqea-hodisalar yig'indisi to'plam deyiladi. To'plamni o'xshash va farqli belgilar asosida ichki guruhlarga bo'lish tasnif hisoblanadi<sup>2</sup>.

Darslarni turli slaydlar, audioeshittirishlar vositasida tashkil etish, albatta, dars jarayonida vaqtdan unumli foydalanish, ta'lim sifat-saviyasi, samaradorligini oshirish, bolani darsga qiziqtirishda katta ahamiyatga ega. Lekin darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish kerak ekan, deb mashg'ulotlar o'yinga aylantirib yuborildi. O'qituvchilar 45 daqiqani nimanidir o'rgatish uchun emas, turli xil bemazmun "o'yin"lar orqali bolani shunchaki ushlab turish uchungina sarflamoqda.

Qoidalar ancha murakkablashgan, ayrim darsliklarda mujmal qoidalar berilgan. Umumta'lim maktablari, kollej va akademik litsey darsliklari o'rtasida uzviylik yo'q. Qoidalar bir-birini takrorlash bilan birga, ayrimlarida har xillik juda ko'p, ayrimlari bir-birini inkor etadi. Oddiy misol: 1) fe'lning ma'noviy guruhlari 6-sinfda 4 ta, akademik litsey (2-kurs)da 7 ta; 2) sifat darajalari 6-sinfda 4 ta, akademik litsey (2-kurs)da 3 ta; 3) fe'l mayllari 6-sinfda 3 ta, ALda 4 ta.

Umuman olganda, ona tili ta'limini takomil darajasiga yetdi, deb aytolmaymiz, hali ona tili grammatik talqinlarida mukammallik yetishmaydi. Bu borada o'quvchilarni chalg'itmaslik, o'quv predmetidan bezdirmaslik, ko'nglini qoldirmaslik uchun bir to'xtamga kelish kerak. Respublika ilmiy-metodik kengashi

<sup>1</sup> Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalişining nazariy masalalari. – T.: Fan, 2009. –B. 17.

<sup>2</sup> Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va boshqalar. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. – T.: Tasvir, 2009. – B. 26.

(IMK)da ko'riladigan masalalarni 1-2 oy oldin o'qituvchilar muhokamasiga qo'yish lozim. IMKlar, odatda, juda tor doirada o'tkaziladi. 10-15 kishining fikri bilan darsliklarni tasdiqlash hozirgi kun talabiga mos kelmaydi.

Ona tili ta'limida tanqidiy fikrlarning ildizi shundaki, o'zga tillardan qoidalarni olish, o'zimizga tatbiq etishda quyushqondan chiqib ketdi. Vaholanki, boshqa til qoidasi bizga to'g'ri kelmaydi. Tilimizning o'z qonuniyatlaridan kelib chiqib, qoida va ta'riflar yaratish kerak. Hozir ham ona tili ta'limida rus tilining ta'siridan qutulganimiz yo'q. Boshqa tillardan olingan namunalar bo'yicha tilimizni rivojlantirish, uslub va xususiyatlarini tilimizga "taqaverish" yaxshilik keltirmaydi.

Ommaviy axborot vositalaridagi tanqidiy fikrlarning qator sabablari bor. Avvalo, amaliyotchi o'qituvchilar maslahatlari har doim ham inobatga olinmayapti. Barcha darsliklar uchun mutaxassis amaliyotchi o'qituvchidan bir muharrir tayinlanishi, u darsliklardagi mazmuni muvofiqlashtirishga mas'ul bo'lishi zarur. Shu bilan birga, darslik mazmuni psixologik, pedagogik ekspertizadan ham o'tishi kerak. Metodist va psixologlarning hammuallifligi urfdan qolayotganligi, tilshunoslarga ko'proq e'tibor berilayotganligi yaxshi emas. Mualliflar qatorida tilshunos yetakchi ekan, darslik, albatta, nazariy o'quv predmetiga aylanib qoladi.

Biror ta'lim bosqichi yo'qki, ona tili ta'limida uzviylik qaysidir darajada shikastlanmagan bo'lsa. Maktab va akademik litsey darsliklaridagi undosh tovushlar, sifat darajalari, mayllar miqdori, zamon qo'shimchalari, sodda va qo'shma gaplar, gap bo'laklari haqidagi ma'lumotlar bir-biriga mutlaqo mos tushmaydi. Ayrim mavzular bo'yicha nazariy tushunchalar mantiqsizligini aytmasa ham bo'ladi. Ayrim misollar keltiramiz:

“Buyruq gaplarning oxiriga vergul, ba'zan undov belgisi qo'yiladi” (Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2013. 533-bet);

«Vazifadosh ko'makchilar: ... oldin, avval, keyin, so'ng, tomon ravish so'z turkumidan... hosil bo'lgan» (Ona tili. 7-sinf. Toshkent, 2017. 79-bet);

«Sabab holi *-lik*, *-sizlik* qo'shimchalarini olgan otlar, *-gani* qo'shimchali ravishdoshlar va sababli, uchun ko'makchili qurilmalar bilan ifodalanadi» (Ona tili. 8-sinf. Toshkent, 2014. 86-bet).

*Ona tili fanining asosiy maqsadi to'g'ri va ravon so'zlaydigan, bexato yozadigan savodxon shaxsni yetishtirishdir.* Qayta-qayta nashr qilinayotgan darsliklarimizda ham asosan jahon tajribasidan kelib chiqib, o'quvchini mustaqil ishlashga o'rgatishga, matn tuzish qobiliyatini shakllantirishga urg'u berilmoqda. Har bir yangi nashrda darsliklarning xatolari tuzatib borilmoqda. Shuni aytish mumkinki, har bir yangi nashrdan oldin katta bir ishchi guruhi darsliklarni qayta tekshiruvdan o'tkazadi. Har bir sahifa bittalab o'rganib chiqiladi. Hattoki nashriyotlarda musahhihlarning yetishmasligi bois, imloviy, ishoraviy, uslubiy xatolarni ham o'qituvchilar to'g'rilashyapti. Shunda ham ba'zan juz'iy kamchiliklar o'tib ketadiki, bu OAVda tanqidiy chiqishlarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, ona tili darsliklaridagi ba'zi mavzular bizni qiynab qo'ymoqda. Jumladan:

– 8-sinf darsligida qo'shma gap sifatida keltirilgan birlikning akademik litsey darsligida uyushiq kesimli sodda gap sifatida berilgani;

– ajratilgan bo'laklar ichida ajratilgan kesim istilohi yo'q bo'la turib (8-sinf), litsey darsligida uning ham ajratilishi haqidagi fikrning berilishi;

– to'ldiruvchi va holning aniq chegarasi yo'qligi;

– qo'shma fe'l bilan ifodalangan kesimning ot kesim yoki fe'l kesimligi muammosi;

– fe'l kesimning sof fe'l bilan ifodalanishi aytilganiga qaramay, ravishdosh bilan ifodalanishiga misol keltirilishi;

– *-alla-* va *-dir* qo'shimchalari bilan yasama olmosh hosil bo'lishi haqidagi fikr;

– ravishning yasalishi muammolari;

– harakat nomining so'z birikmasida fe'lli birikmani, gap bo'lagi bo'yicha ot kesimni shakllantirishi va hokazolar. Sanayversak, anchagina. Bunday chalkashliklarning yechim yo'llari bor, albatta.

Bizningcha:

– darslik yozayotgan mualliflar birlashib, yagona fikrga kelishlari kerak; terminlarni qo'llashda bir xillikka erishish lozim;

– o'ta chuqur, ilmiylashib ketgan qoidalarni soddalashtirish kerak;

– maktab darsliklarini yaratishga metodist o'qituvchilarni, ha, aynan, maktabda dars beradigan, bir necha yil maktab “havosini olgan” va o'quvchi yoshi, psixologiyasini hisobga olgan holda mavzu tanlay oladigan o'qituvchilarni jalb qilish kerak.

Manbalarda ravishlarning mustaqil turkum sifatida nisbatan keyinroq shakllangani va o'z tarkibini boshqa turkumlardan ajralib chiqqan so'zlar hisobiga boyitib borgani ta'kidlanadi. Bu esa ba'zi so'zlarni turkumga ajratishda qator ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, tilshunoslar o'zbekcha ravishni rus tilidagi “на́речие”ning muqobili sifatida talqin qilishgan, natijada *kecha, kunduz, tong, oqshom* kabi payt oti, *atrof, o'rta, old, orqa* kabi o'rin oti, *oz, mo'l, butun to'la* kabi miqdor sifati, *keyin, past, baland, yuqori* kabi o'rin sifati ravish turkumi doirasida o'rganilgan<sup>1</sup>.

Men talaba sifatida maktabda amaliyot jarayonida 8-sinf Ona tili fanidan “Yordamchi so'zlar” mavzusida ochiq dars o'tdim. Bu mavzu 7-sinfda o'tilganlarni takrorlash mavzularidan bo'lgani uchun darslikdagi 12-mashqning shartiga ko'ra, o'quvchilar berilgan 15 so'zni yordamchi so'zning ko'makchi, bog'lovchi, yuklama turlarining har biriga beshtadan joylashtirishlari lozim edi. Barcha guruhlardagi o'quvchilar go'yo yordamchisini bog'lovchiga olishdi va bu xatoligini bildirsam, ustozlari shunaqa deganini aytishdi. O'sha ustozni ham to'g'ri tushungan holda vaziyatdan chiqishga harakat qildim. *Go'yo* so'zi 7-sinfda yuklama deb, 9-sinfda qiyoslash-chog'ishtiruv bog'lovchisi deb qaralmoqda. O'rta maktab darsliklaridagi birgina ilmiy noqulaylikni misol keltirdim, xolos. Bunaqa holatlar boshqa darsliklarda ham ko'zga tashlanadi. Agar biz bugun umumiy o'rta ta'lim maktablari darsliklaridagi turli xil yondashuvlarni, chalkashliklarni o'z o'rnida aniqlik kiritib bartaraf etmasak, o'quvchilarimiz ertaga ta'limning keyingi bosqichlaridagi ona tili darslarida ham “kecha”ning ilmiy xulosalaridan qoniqmasliklari tayin.

Tilshunos va metodist olimlarimiz orasida yakdillik, hamjihatlik yetishmayapti. Ular bir yoqadan bosh chiqarib darslik yaratishmayapti. Shuning uchun ham darsliklar orasida uzviylik yo'q. Mualliflar qatorida haqiqiy amaliyotchi

---

<sup>1</sup> Mualliflar jamoasi. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. – T.: Mumtoz so'z, 2008. – B. 422.

o'qituvchini umuman ko'rmaymiz. Bir fikrni ochiq aytish kerakki, mualliflar tanlovlari ham tanish-bilishchilik bilan o'tkazilgani oqibatida ona tili ta'limi shu holatga keldi.

Yana bir narsani alohida ta'kidlashni istardim: ayrim darslik mualliflari tanqidni to'g'ri qabul qila olmayapti va buni eshitishni ham xohlamaydilar.

Fikrimcha, davr olimlardan zamonaviy uslubdagi, ilg'or qarashlarga asoslangan darslik yaratishni talab qilayotir. Amaldagi darsliklarda qoidalardan so'ng berilgan mashq va topshiriqlar bolaning nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishi, og'zaki va yozma nutqini o'stirish, tafakkur doirasining kengayishiga yordam bermaydi, mustaqil fikrlashga undamaydi. Darslik yaratish uchun qandaydir ilmiy darajaga (unvonga) ega bo'lish kerak, degan talabga o'zgartirish kiritib, oddiy o'qituvchilarga ham o'z tajribalariga tayangan holda bolaning yoshi va qiziqishlari doirasini inobatga olib, yangicha uslubda darslik yaratish imkoni berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Ona tili o'quv dasturini tubdan isloh qilish kerak. Murakkab mavzularni maktab dasturidan chiqarib, oliy ta'lim dasturiga o'tkazish lozim. Masalan, murakkab qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap turlari kabilar.

Darsliklarda takrorlar juda ko'p. Masalan, *Aa, Oo, Ii va Uu* unllarining talaffuzi va imlosi 1-, 2-, 3-, 4-, 5- sinflarning har birida berilgan. Bola 5 yil bitta shu mavzuni takrorlaydi. Tutuq belgisi, undoshlar talaffuzi va imlosida ham shu holatni kuzatish mumkin. Darslikni yaratgan olimlar o'z nuqtai nazaridan kelib chiqib, ya'ni bola uchun talabni o'ta yuqori qo'yib, faqat nazariya bilan cheklanib qolishgan. Darsliklarda bolani mustaqil ijodiy fikrlashga va og'zaki nutqini o'stirishga undaydigan, tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladigan topshiriqlar deyarli berilmagan. Darsliklar hozirgi zamon bola psixologiyasiga mutlaqo mos emas.

Mutaxassislarimiz bir masalani o'tkir muammo sifatida ko'p ta'kidlashmoqda. Ilmiy jihatdan pishiq, puxta darsliklarning ko'proq nazariya bilan cheklanayotgani, amaliy jarayon uchun samarasiz bo'lib qolayotgani ro'y-rost aytilib, chuqurlashtirilgan sof lingvistik bilimlarning nutq amaliyoti uchun, shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiya uchun qanchalik foydasi bor yoki yo'qligi, ona tili

darsliklarida nazariy ma'lumotlarni chuqurlashtirib berish, lingvistikaga oid qoidalarni takror-takror kiritish natijasida asosiy maqsad ko'pincha ularning soyasida qolib ketayotganligi aytilmoqda.

Tilshunos olimlar ona tili qurilishining o'ziga xos xususiyatini ilmiy jihatdan o'rganib adabiy til birliklarini me'yorlashtiradi. Bunday birliklarning lisoniy-nutqiy xususiyati muayyan mavzularga bo'linib, darslikda qoida va mashq sifatida o'z ifodasini topadi. Mashqdan maqsad o'quvchining yozma va og'zaki nutqini o'stirish bo'lganligidan darslikda har bir qoidaga oid o'nlab mashq beriladi. Masalaning nozik jihati ham bor. Hozirgi o'zbek adabiy tili XX asrda mustabid tuzum davrida shakllantirilganligi bois tilshunos olimlar ko'p holda hukmron tilga xos qolip va andozalarga asoslanishga majbur bo'lgan. Holbuki, ularning ancha qismi o'zbek adabiy tili xususiyatiga mos kelmas edi. Istiqloldan keyin bunday g'ayriilmiy yondashuvdan voz kechish imkoniyati tug'ildi. Bunday imkoniyatdan foydalanish uchun esa tilshunoslarimizda milliy ruh uyg'ongan bo'lishi kerak.

Tilshunoslar metodikani, metodistlar til qonuniyatlarini bilmaydi. Shunisi yomon. Masalan, qoidani yodlatish kerak emas, nutq qaysi qonuniyat doirasida ketayotganini anglatish zarur. Darsliklarda qoida o'qitilib, ortidan misol berib ketilaveradi. Bu – noto'g'ri. Misoldan qonuniyat yaratish kerak. Darsliklarda bu hisobga olinmaydi. Bolaning o'zi bajarib ko'rishi, o'zi misoldan qoidani chiqarishi kerak. Darslik shunday asosda tuzilishi lozim.

Darsliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6-apreldagi 187- "Umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" qarori bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari talablariga javob bersa, masala o'z yechimini topadi. Unga ko'ra, o'quvchi boshlang'ich sinflarda lug'at boyligini oshirishi, keyinroq ularni amaliyotda qo'llay olishi, o'z fikrini ona tilini mukammal biluvchi shaxs sifatida chiroyli, aniq, jo'yali ifodalay olishi butun masala mohiyatini qamraydi. Ushbu ijtimoiy vazifaga daxli yo'q nazariy bilimlardan voz kechish vaqti allaqachon yetdi.

Soʻz maʼnosini bilish, soʻz tanlash va qoʻllash malakasi bosh masalaga aylanishi kerak. Oʻquvchini soʻz saltanatiga olib kirish uchun darsliklarimizda til va adabiyot fanlari integratsiyasi masalasini mutlaqo qayta koʻrib chiqish lozim. Maʼlumki, 8-sinf adabiyot darslarida, asosan, mumtoz adiblarimiz ijodi oʻrganiladi. Demak, shunga muvofiq ravishda bu sinfda ona tili darslari “Ona tili. Mumtoz soʻz” deya nomlanib, oʻquvchilar mumtoz matnlar mazmunini oʻrganishlari, tahlil qilishlari, soʻzlarning zohiriy, botiniy, ramziy maʼnolarini oʻrganishlari, lugʻatlar bilan ishlashlari, maʼno “magʻiz”larini chaqishlari zarur.

Bu quyidagi jihatlari bilan eʼtiborga molik boʻladi:

– birinchidan, oʻquvchilar mumtoz adabiyotga ongli ravishda oshno boʻladilar;

ikkinchidan, ularning soʻz zaxirasi, demakki, nutqi muttasil boyib boradi;

– uchinchidan, oʻquvchilarning savodxonligi avtomatik ravishda oshib boradi;

– toʻrtinchidan, mumtoz soʻzlar maʼnosidagi maʼrifat, maʼnaviyat, qadriyatlarimiz avlodlar ongiga singadi;

– beshinchidan, oʻquvchilarimizda mantiqiy, obrazli, assotsiativ fikrlash, tafakkur yuksaladi.

Aytilganidek, 5-sinfdan boshlab har bir sinfda toʻgʻri, ravon va boy nutqning asosiy vositasi boʻlgan soʻzning turli jihatlariga alohida eʼtibor qaratiladi. Masalan, “Ona tili. Soʻz mulkiga sayohat” (5-sinf), “Ona tili. Soʻz sehri” (6-sinf), “Ona tili. Fasohat” (7-sinf), “Ona tili. Soʻzlar tarixi” (9-sinf) kabi.

Oʻquvchi qancha koʻp soʻz (lugʻat) bilsa, iboralarni tushunib sharhlay olsa, uning nutqi shuncha ravon boʻlib boradi. Bir soʻz bilan aytganda, oʻquvchida *fasohat* shakllantirilishi kerak.

Ona tili oʻquv predmeti boʻlishdan koʻra, “tilshunoslik nazariyasi” faniga aylanib qolgan. Baʼzan oʻquvchilar “Shu qoidalar nima uchun kerak, masalan, ergashgan qoʻshma gapning oʻnga yaqin bogʻlovchi vositasi haqida qoidalar yodlaymizu, matn tuzayotganda hozir -ki yuklamasini qoʻyamizmi, nisbiy soʻzlar va -sa shart mayli qoʻshimchasini qoʻyamizmi, deb oʻylab oʻtirmaymiz-ku!” – deb

qolishadi. To'g'ri, grammatika kerak. Ammo ko'pincha darsliklar "grammatika grammatika uchun" prinsipi asosida tuzilganga o'xshaydi. Aslida grammatika – og'zaki va yozma nutqning go'zal ifodasi uchun-ku!

O'tgan yili ona tili darsliklarining o'ta ilmiylashib ketgani xususida, ko'proq so'zga e'tibor berish, sinflar kesimida so'z bilan ishlashning zaruriyati haqida ko'p gapirildi. "Ma'rifat" gazetasida ham ancha paytgacha shu xususda munozaralar bo'lib turdi. Buning natijasi o'laroq, sentabr oyida 10-sinf "Ona tili" darsligi chop etildi. Tanqidlardan o'rinli xulosa chiqargan holda bu darslikda lug'atga e'tibor qaratilgan: so'zlarning izohi, ma'nodoshligi, talaffuzdosh so'zlar sharhi va hokazo. Til birliklarining ham uslubiyati, nozik ma'no farqlari, ishlatilish o'rinlari haqida qoidalar berilgan, ularga mos topshiriq va mashqlar kiritilgan. Bu faqat maqtovga loyiq.

Yangi 11-sinf darsligi esa oliy ta'lim "Nutq madaniyati" darsligining ko'chirmasi bo'lib qolgani aytilmoqda. Haqiqatan ham, darsliklarimiz faqat ilmiy qoidalardan iborat bo'lib qolyapti. Har qanday emas, balki nutq uchun zarur ilmiy qoidalar amaliy mashqlar bilan mustahkamlansagina xotirada oson saqlanishi va ulardan zarur o'rinlarda unumli foydalanish mumkin bo'ladi. Aytaylik, o'quvchilarimiz darslikdagi qoidalarni hijjalab yod olsayu, ularni ishlata olmasa, 4-5 gapdan iborat tuzukkina jumla yoki matn tuzolmasa, "Vatan", "Ona" kabi mavzularda to'lqinlanib, jo'shib gapirolmasa, ularning ma'naviy dunyosi, so'z boyligi kundan-kunga quruqlashib ketmaydimi? Menimcha, darsliklarda o'quvchining og'zaki nutqini o'stiruvchi, mustaqil fikrlashga undovchi mashqlar ko'proq berilsa, lug'atlar bilan ishlashga alohida soatlar ajratilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Biz har gal darslikdagi xatoliklarga ko'zimiz tushsa, keyingi chiqadigan darsliklarni kutib yashaymiz. Go'yo keyingi nashrlarda bu xatoliklar bartaraf etiladigandek. Ammo shu o'quv yili qaytadan nashr qilingan 6-7-sinf ona tili darsliklariga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning faqat dizayni, qog'ozining sifatigagina e'tibor berilgani ma'lum bo'ldi. Demak, mualliflar darslik ustida ishlashmabdi.

Mutaxassislar, ona tili o'qituvchilarining ta'kidlashicha, oxirgi yillari oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlarida ona tili fanidan testlar murakkab, bir savolning o'zida yana besh-olti savol qatorlashib kelishi (oqibatda, ayni blokda savollar soni 36 ta emas, balki, o'z-o'zidan 40–50 taga yetib qoladi, ajratilgan vaqt esa o'sha-o'sha) abituriyent xuddi boshqotirma yechishi zarurdek talablar qo'yilmoqda. Tabiiyki, barcha savollar darslik doirasida, faqat o'sha manbada keltirilgan nazariy qoidalar asosida tuziladi. Bu savollar darsliklarda berilgan ma'lumotlardan tashqariga chiqmaydi.

Bu savolning javobi o'zi bilan bo'ldi. Testda berilgan savollar bilan tilni bilish darajasini aniqlab bo'lmaydi. Avvalo, darsliklardagi qoidalarni to'g'rilash kerak. Ana undan keyin shularga asoslanib test savollari tuzish zarur. Shuningdek, boshqa yana har xil sohalar bor, ularga o'rta ta'lim doirasidan chiqmagan holda test tuzish maqsadga muvofiq, nazarimda. Testlarni milliylashtirish kerak. Aniqroq qilib aytganda, testdagi savolda tushadigan muayyan bir qoidani boshqa tildan shunday ko'chirib qo'yishmas, uni o'zbek tilining tabiiy qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda, misoldan qoidaga qarab chiqish orqali yaratish kerak. Balki shunda testlar murakkablashib ketmas.

Murakkab yoki o'ta ilmiy qilib tuzilgan bo'lsa, test emas, uni tuzuvchi aybdor. Binobarin, testdan voz kechish adolatdan bo'lmaydi. Bizningcha, test tuzishni takomillashtirish yo'llarini izlash lozim. Dunyoda bu ish yaxshi yo'lga qo'yilgan birorta mamlakat bo'lsa, o'shaning tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq. Ammo testdan voz kechishni ma'qullab bo'lmaydi. Test tuzishni takomillashtira olsak, uning tuzuvchisi malomatga qolmaydi.

Ona tilidan testlar murakkablik darajasiga ko'ra farqlanishi kerak, albatta. Testologiya nazariyasiga ko'ra, test topshiriqlari murakkablik darajasiga ko'ra 4 ga bo'linadi: 1) oson; 2) o'rtacha qiyin; 3) qiyin; 4) eng qiyin. Ona tilidan to'rt murakkablik darajasidagi testlar nazariy va metodik asoslarining yaratilmaganligi, test topshiriqlari tuzishda ta'limga kompetensiyaviy yondashuv prinsiplariga e'tibor qilinmasligi, ta'lim maqsadi va ta'lim oluvchilarning malaka darajasini baholash mezonlarining inobatga olinmasligi test topshiriqlari ta'lim oluvchilarning hayotiy

ehtiyoj va zaruratidan, kundalik turmushidan qanchalar uzilib qolganligini ko'rsatadi. Ular ona tili ta'limi maqsadi, bitiruvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning DTSda belgilangan mezonlari asosida bo'lishi lozim.

Darsliklardagi oxirigacha hal etilmagan yoki ilmiy mantiq buzilgan masalalar bo'yicha tuzilgan testlar javoblari faqat manbalarda berilgan ma'lumotlardan tashqariga chiqmasligi, serqatlamlilikning me'yordan oshib ketishi test talablarini buzadi. Test masalasi bilan alohida shug'ullanmaydigan yaxshi mutaxassisning ham 36 testdan yarmini to'g'ri yecholmasligi yoki murakkab fan sanalgan matematikadan guruhdagi 15 abituriyentdan 7-8 tasi 30 ta to'g'ri javob topgani holda, 15 abituriyent emas, 15 ona tili repetitoridan 1-2 tasi 30 ta to'g'ri javob topmasa, qolgani 25 taga ham yetkaza olmasligi testlar va fanning holatini aytib turibdi. Faqat muallifgina mutlaqo to'g'ri deb bilgan, aslida, mulohazali tushunchalardan test tuzmaslik, chig'iriqdan o'tgan, mantiq tarozisida tortilgan, javobi e'tirozsiz bitta bo'lgan tushunchalardan test tuzmoq maqsadga muvofiq. 30 testning murakkablik darajasi – oddiy, o'rtacha, qiyin testlar miqdori me'yorlariga amal qilish, murakkab testlarda ham qatlamning 3 tadan oshib ketmasligiga rioya etish ko'zlangan natijani beradi.

Abituriyentlar uchun ona tili test savollari nihoyatda og'ir va o'ta vaqtni o'g'irlyadigan darajada. Go'yo bu savollar o'quvchiga emas, balki o'qituvchisi uchun tuzilgandek. Savollarning oxiriga bormay boshi esdan chiqadi. Bir o'ylab ko'raylik, oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlariga tushadigan savollarni bajarishga tayyor bo'lish uchun birgina ona tili va adabiyot fanining o'zidan 18-20 darslikni shunchaki o'qibgina qolmay, balki nuqta-verguligacha yod olish kerak. Endi tasavvur qilaylik, ijtimoiy yo'nalishni tanlagan abituriyent tarix fanidan ham, xorijiy tildan ham shuncha kitobni yod olishi zarur. Bu bir o'smir uchun og'irlik qilmaydimi? Xullas, Davlat test markazining test savollarini tuzuvchi mutaxassislari va ularni tasdiqlaydigan psixologlardan juda ham noroziman. Chunki, birinchidan, bunaqa savol ichidagi savollardan iborat 30 topshiriqni ishlash uchun 1 soat vaqt yetmaydi, ikkinchidan, shunday saviyadagi savollarni o'qituvchilar (hatto o'zlari ham) ba'zi abituriyentlarchalik ishlay olmasliklari hammaga ma'lum. Katta hayot bo'sag'asida turgan, hali uning zarbalariga duch kelmagan yoshlarning kelajakni bunyod qila

olishdek o'zlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga ko'mak bermay, talaba bo'lishni ular uchun yetib bo'lmas yoki juda mashaqqatlar bilan erishiladigan "oliy baxtga" aylantirib qo'yayapmiz.

Darsliklardan kelib chiqib DTM testlari ham o'ta murakkablashdi. Buning 2 sababi bor bo'lib, abituriyentlar sonining ko'payib ketgani, repetitorlarning tinmay izlanishi tufayli abituriyentlar orasida raqobatning kuchaygani. 10 yil avvalgi abituriyent bilan hozirgisi orasida katta farq bor, chunki o'quv markazlari, repetitorlar soni ko'paydi, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga qo'yiladigan talablar o'sdi. Shuningdek, apellyatsiyaga kelgan abituriyent o'z savoliga javobni darslikdan ko'rsatib berishni talab qilyapti. Test tuzuvchilar shuning uchun ham darslikka mutlaqo, so'zma-so'z tayanib qolmoqdalar. "Apellyatsiya mashmashasi" tufayli mustaqil fikrlashga chorlovchi savollar tuzishdan qochmoqdalar.

Testlar qiyinlashib ketganini tan olgan holda, har qalay, hozirgi kundagi abituriyentning bilim darajasi, bu bilimlar uning uchun qanchalik kerakligidan qat'i nazar ancha o'sganligini ham ta'kidlash joiz.

Ona tili va adabiyoti fani nufuzini oshirish uchun oliy o'quv yurtlariga kirishda insho yozishni qayta joriy etish zarurligini ma'qullaydilar. Abituriyentning savodxonligi, ona tili qoidalarini qay darajada o'rgangani yozgan inshosida yaqqol bilinadi. Bizningcha, bu o'zini oqlaydigan tajribalardan.

Albatta, insho yozishni qayta joriy etish juda zarur. Bolaning haqiqiy bilimi: savodxonligi, bilim darajasi, fikrlash doirasi va husnixati inshoda namoyon bo'ladi. Kirish imtihonlari faqat test usulida bo'layotganligi sababli o'quvchilarning savodxonlik darajasi o'ta pasayib ketdi, mantiqiy fikrlashi, gapni to'g'ri tuza olish ko'nikmalari deyarli rivojlanmayapti, bola erkin, mustaqil fikr yurita olmayapti. Inshoga tayyorgarlik jarayonida o'quvchining savodxonlik darajasi yuksaladi, yoshlarga, o'z-o'zidan, badiiy kitoblarni ko'proq o'qitishga erishamiz, natijada ma'naviyati boy, o'zimiz orzu qilgan inson bo'lib voyaga yetadi.

## 1.2. Nutq madaniyati va unga qo'yiladigan talablar

**Savodxonlik** talab darajasida bo'lgandan so'ng **nutq madaniyati** yuqoriligi uchun intilish bo'lishi lozim. Demak, talabalarga til va nutq, nutq madaniyati tushunchalari asoslari hamda ularni amaliyotda qo'llash to'g'risida tegishli bilimlar berilishi zarur.

Nutq madaniyati sohasining adabiy norma qonuniyatlarini o'rganishdan asosiy maqsadi aslida yozma va og'zaki adabiy nutq uchun zarur bo'lgan madaniy holatlarni belgilashdir. Lekin nutq madaniyati sohasi adabiy norma tizimiga faqat tayyor lisoniy holatdan, ya'ni tayyor til vositalaridan foydalanuvchi sifatida emas, balki til hayotiga faol aralashuvi sifatida ham yondashadi<sup>1</sup>.

Nutqiy jarayon – tilning o'z vazifasini bajarish jarayoni. Bu jarayon yaxshi yoki yomon kechishi mumkin. Notiq esa ma'lum ma'noda bu jarayonni amalga oshiruvchidir.

«Madaniy nutq deb, tilning mavjud barcha vositalari va ular imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq tarzda o'rinli, unumli foydalanilgan holda tuzilgan nutqqa aytiladi. Nutq madaniyati esa ana shu tilni – aloqa-aralashuv qurolini ishlatishga bo'lgan munosabatdir»<sup>9</sup>. Bu va boshqa dastlabki ma'lumotlar talabalarning nutq madaniyatiga e'tiborini yo'naltirishga, og'zaki va yozma nutq madaniyatiga erishish o'z faoliyatlari uchun nihoyatda zarurligini anglab yetishlariga xizmat qilishi lozim.

Bo'lajak o'qituvchilar **savodxonlik** dastlabki asosiy bosqich ekanligini anglab yetganlaridan keyin ularga **nutq madaniyati** yuqoriligini ta'minlovchi omillarni bilish, nutq madaniyati va adabiy me'yor, o'zbek adabiy tilining me'yorlari va ularga rioya qilish holati, bu sohadagi kamchiliklar hamda ularni tuzatish yo'llari tushuntirilishi lozim.

Nutqning asosiy kommunikativ xususiyatlari, ya'ni to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, tozalik, ta'sirchanlik, maqsadga muvofiqlik haqida nazariy ma'lumotlarning amaliyot bilan bog'lab tushuntirilishi, o'qituvchining **og'zaki va yozma nutq mahoratini** oshirishga xizmat qilishi asoslanishi kerak. O'quvchi qaysi

---

<sup>1</sup> Begmatov E. O'zbek nutqi madaniyati asoslari. –T., O'qituvchi. 1991. 89-bet.

kasbni tanlamasin va talaba qaysi mutaxassislik bo'yicha tahsil olmasin, ular yozma nutq mahoratini egallashlari, ayniqsa, kundalik hayotda va ish jarayonida qo'llaniladigan ish qog'ozlarini savodli yozish ko'nikmalarini puxta egallashlari lozimligi (hatto shartligi)ni yetarlicha anglab yetishlari kerak.

Til ma'naviyati va nutq madaniyatidagi eng yuqori bosqich **notiqlik** sifatlarini egallagan kishilar jamiyatda yuqori darajada obro'-e'tiborga sazovor bo'lishlari uqtirilib, doimo zamon bilan hamnafas holda, o'zbek adabiy tili qonun-qoidalarini puxta egallash bilan birga undan mahorat bilan foydalanish, intilish va tinmay mehnat qilish orqali notiqlikka erishish mumkinligiga ishontirish ularning bu fanga qiziqishlarini yanada oshiradi.

Lug'aviy birliklarning umumiy lug'aviy ma'nosini belgilashda ham boshqa lisoniy birliklarda bo'lganidek, iyerarxik qurilishli paradigmalarda asosiy usullardan biri hisoblanadi. Lug'aviy birliklarning asosini uning sememasi tashkil etishi haqida yuqorida aytib o'tilganligi tufayli uni atroflicha izohlashga ehtiyoj yo'q. Har bir semema o'ziga xos atash, ifoda va vazifa semalari yig'indisidan tashkil topadi. Bunday semalarning tabiati semalararo munosabat va birikish qonuniyatlari tilshunoslikda atroflicha tadqiq qilingan<sup>1</sup>.

Demak, navbatdagi yuqori bosqich, ya'ni **notiqlik** to'g'risida Sharq va G'arb notiqligi, ularning namoyandalari haqida ma'lumotlar berish bilan yaxshi nutqqa qo'yiladigan talablar, til odobi, til ma'naviyati va nutq madaniyati, muloqot madaniyati tushunchalari dalillanishi, ularning merosidan namunalar izohlanishi, tegishli materiallarning mazmuni zamon bilan bog'lanishi zarur. Shundagina talabalarga mazkur kurs bo'yicha asosiy bilim va ko'nikmalarni berish, ularning e'tiborini tortish, kelgusida ish jarayonlarida foydalanishlari uchun yo'llanma berish samaradorligi oshadi, deb hisoblaymiz.

O'qitish jarayonida, fikrimizcha, bir-birlari bilan uzviy bog'langan, quyidagi bosqichlarning ahamiyatini va ularning fanlar bo'yicha bilimlarni mahorat bilan

---

<sup>1</sup> Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. – T.: Fan, 1975. -140 b.; Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – T.: O'qituvchi, 1995; Bobojonov B. Semema, uning nutqiy voqelanishi va izohli lug'atdagi talqini: Filol. fan. nomz...dis. – Samarqand, 2004; Rahmatullayev Sh., Yunusov R. Sememalarning semalar sostavi va semantik bog'lanishlar haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 1974. -№ 1. – B. 51-54.

o'zlashtirishlari uchun zarurligini o'quvchilar ongiga singdirib borish lozim: *savodxonlik, nutq madaniyati, og'zaki va yozma nutq mahorati, notiqlik*.

Demak, mazkur kurs o'qitilishida asosiy talab qisman nazariy ma'lumotlar asosida ko'proq amaliy jihatlarni ko'rsatish, yutuq va kamchiliklar bilan tanishtirish orqali, hozirgi o'zbek tilining ijtimoiy mohiyatini, ya'ni hozirgi mavqeyini, o'zbek adabiy tilining sofliigi va o'quvchilar nutq madaniyatiga salbiy ta'sir qilayotgan omillarni tushuntirish hamda kelgusida ular amaliyotida qo'llaydigan jihatlarga e'tiborini qaratishdan iborat bo'lishi lozim.

Mazkur kursni o'qitish jarayonida o'qituvchining jamiyatimizdagi yuksak mavqeyi, ziyoli inson sifatida ta'lim-tarbiya jarayoni va jamoatchilik sohasidagi faoliyatlarda o'rni yuqoriligi, barkamol avlodni tarbiyalashda o'ziga xos namuna ekanligiga e'tibor qaratilib, uning nutqi nihoyatda mazmunli, ravon, aniq, o'zbek adabiy tilining barcha imkoniyatlarini o'zida aks ettirsa, uning obro'si yanada ortishi talabalar ongiga singdirib borilishi kerak.

«O'qituvchining nutq madaniyati» fani o'ziga xos amaliy soha sifatida tilshunoslikning nazariy fanlaridan olingan bilimlarga suyangan holda to'g'ri, aniq, mantiqiy, ta'sirchan nutq tuzish va ularga qo'yilgan talablar, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar hamda ularni bartaraf etish to'g'risida bilim beradi. Bo'lajak o'qituvchining o'zbek tilining hozirgi ijtimoiy mohiyati, davlat tilining jamiyatimizdagi o'rni, holati to'g'risidagi jarayonni ma'lum darajada kuzatib borishi, mavjud yutuq va kamchiliklarni farqlay olishi, o'z amaliyotida foydalanishi uchun zaruriy ma'lumot sifatida til, til va jamiyat, til va nutq, adabiy til me'yorlari, vazifaviy uslublar, muloqot madaniyati, til ma'naviyati va nutq odobi hamda boshqa masalalar bo'yicha ham talabalar ma'lum bilimga ega bo'ladilar.

«O'qituvchining nutq madaniyati» fani ushbu mavzular doirasida nazariy tadqiqotlarga tayangan holda, ko'proq amaliy bilim berishi jihatidan «Nutq madaniyati asoslari», «Nutq madaniyati va notiqlik san'ati» kurslariga yaqin turadi. Shuning uchun ushbu kurslarning materiallari «O'qituvchining nutq madaniyati» fani o'qitilishi uchun ma'lum darajada asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

“Nutq madaniyati va notiqlik san’ati” fani adabiy til me’yorlarini, uning tarixiylikini, taraqqiy etib borishini undagi ba’zi birliklarning eskirishi, ular o’rnida yangi me’yoriy birliklarning paydo bo’lishini kuzatib, qayd etib boradi. Biroq bu fan adabiy me’yorlarni yaratmaydi, ba’zi bir hodisalarni me’yor sifatida majburan kiritmaydi. Balki o’zbek milliy adabiy tili faoliyatini, uning rivojlanishini kuzatib boradi, obyektiv qonunlarini kashf etadi, shular asosida tavsiyalar berib boradi<sup>10</sup>. «O’qituvchining nutq madaniyati» fani esa mazkur fan erishgan yutuqlarning amaliyoti bilan shug’ullanadi, ya’ni talabalar va o’quvchilar, o’qituvchilarning adabiy til me’yorlariga rioya etish holatlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda oliy o’quv yurtlarining barcha fakultetlarida “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati”, «O’qituvchining nutq madaniyati» fanlarining o’tilayotganligi e’tiborlidir. Yosh avlodni tarbiyalashdek o’ta mas’uliyatli vazifani o’z zimmasiga olayotgan talabaning o’z fanini chuqur o’rganishining o’zi yetarli emas. Chunki “o’qituvchining nutqi o’tmas, nochor bo’lsa, uning bilimi qanchalik va tugal bo’lmasin, o’ziga ham azob, o’quvchi sho’rlikka ham azob. Ona tilida puxta, lo’nda va shirador nutq tuza olish malakasi va mahorati matematika o’qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O’qituvchi go’zal, o’zini ham, so’zni ham qiynamaydigan ravon va ifodalarga boy nutqi bilan o’quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo’lgan bilimni yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi. Zotan, ona tili milliy ma’naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir”<sup>11</sup>.

Hozirgi o’zbek adabiy tili ulkan ijtimoiy vazifani bajarmoqda. O’zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi Respublikamizda davlat ishlarining, o’qish-o’qitish, ta’lim-tarbiya, targ’ibot-tashviqot ishlarining shu tilda olib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo’lgan munosabat tubdan o’zgardi, uning barcha imkoniyatlarini ilmiy o’rganish ishlari keng ko’lamda olib borilmoqda. Nutq madaniyati sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ham son va sifat jihatidan tobora ko’payib bormoqda. Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotda qo’llashning muhim imkoniyatlaridan biri «O’qituvchining nutq madaniyati» fanining barcha mutaxassisliklar bo’yicha bilim olayotgan talabalarga o’qitilishidir.

Ushbu fan asoslarini o'qitish zamonaviy o'qituvchining davlat tilining hozirgi ijtimoiy holatini kuzatib borish, ya'ni tildan foydalanishdagi yutuq va kamchiliklarni ma'lum ma'noda baholash, talabalar va o'quvchilar nutq madaniyatiga salbiy ta'sir etadigan omillarni bilish, dars jarayonida ularning nutq madaniyatiga e'tibor, tildan foydalanishdagi turli salbiy holatlarning oldini olishga doir tavsiyalar berish uchun ham foydali, deb hisoblaymiz.

“O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi juda qiyin kechyapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir”<sup>12</sup>.

Maktabda nutq tadbirkorligini singdirish o'qituvchining bosh vazifasidir. U birinchi soatdan boshlab to oxirgi mashg'ulotgacha o'quvchilarda nutq madaniyati (tadbirkorligi)ni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

“Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari ham bilvosita shug'ullanishi kerak. Matematika bo'ladimi, fizika yoki tarix bo'ladimi, o'qituvchi o'z nutqiy madaniyati bilan namuna ko'rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Ta'lim amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o'qituvchi juda ko'p vaqtini turli ko'rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi. Bu ma'qul, ammo, unutmazlik kerakki, nutqiy madaniyatni o'rgatish, chiroyli so'z zavqini o'stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko'rgazmali qurol o'qituvchining o'zidir”<sup>13</sup>, uning nutqidir, nutq ma'naviyatidir.

Demak, bo'lajak o'qituvchilar o'quvchi va talabalarga asosiy mutaxassislik fanlari sohasidagi bilimlarni yetkazishda nutq madaniyati va mahoratini egallash muhimligini mazkur kursni o'qitish jarayonida to'la his etishlari, e'tiborli bo'lishlari

hamda yozma va og'zaki nutq mahoratini egallash ularning faoliyati uchun nihoyatda zarurligini tushunib olishlari lozim.

«O'qituvchining nutq madaniyati» sohasidagi bilimlarni talabalar ongiga singdirishda bir qator muammolarning borligi ham bu sohadagi ishlarni tashkil qilishda ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida «O'qituvchining nutq madaniyati» kursini o'qitishda qanday yondashish va qaysi mavzularni qay tartibda talabalarga yetkazish bo'yicha yagona dastur hamda darslik, qo'llanmalar mavjud emas. Hozirgi paytda turli oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tomonidan yaratilgan aksariyat qo'llanmalar nutq madaniyatining nazariy masalalarini qamrab olgan bo'lib, asosan bo'lajak filologlarga moslab yozilgan. Boshqa mutaxassisliklarga mo'ljallab yozilgan qo'llanmalarda ham aynan shunday materiallardan foydalanilgan. Demak, «O'qituvchining nutq madaniyati» kursini o'qitishda samaradorlikka erishish uchun, avvalo, bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borib, nazariy asos yaratish lozim. Keyin nazariy bilimlarga tayangan holda kurs dasturini yaratib, unga mos darslik va qo'llanmalar yozish zarur. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufidagi oliy o'quv yurtlari uchun yagona dastur yaratish bu ishlarning boshlanishi uchun nihoyatda muhimdir.

*Adabiy nutq va uning uslublari.* Til kishilik jamiyatida fikr almashish, aloqa-aralashuvning eng asosiy vositasidir. U yozma va og'zaki nutq jarayonida o'z ijtimoiy vazifasini bajaradi. Nutqning adabiy va shevalarga xos ko'rinishlari bor.

*Adabiy nutq* so'z san'atkorlari – yozuvchilar, shoirlar, olimlar tomonidan ishlangan, qat'iy me'yorlarga ega bo'lgan nutq ko'rinishidir. Adabiy nutqda har bir so'z va qo'shimchaning talaffuzi, imlosi, qo'llanilishi, ma'nolari aniq me'yorlar bilan chegaralangan. Bu me'yorlarni buzish qo'pol xato sanaladi. Odatda, barcha rasmiy yozishmalar, hujjatlar, o'qitish ishlari, matbuot xabarlari adabiy nutqda amalga oshiriladi. Adabiy nutq me'yorlarini buzish nafaqat savodsizlik va madaniyatsizlik, balki o'z ona tiliga nisbatan hurmatsizlik belgisidir. Mana shu sababdan, umumta'lim maktablarida «Ona tili» asosiy o'quv fanlaridan biri sanaladi. Zeroki, bu fan adabiy nutq me'yorlarini o'rgatadi, sizda undan foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi.

*Nutq uslublari haqida ma'lumot.* O'zbek tilining ichki tuzilishinigina o'rganish bizga bu til haqida to'la axborotni bera olmaydi, chunki til birliklaridan qachon, qayerda, qanday vaziyatda foydalana bilish ham katta ahamiyatga ega. Masalan, *muhtaram, qimmatli, aziz* singari so'zlarni ma'lum shaxs bildiruvchi so'zlarga faqat rasmiy, publitsistik uslublarda qo'shib ishlatishingiz mumkin: *Muhtaram Solijon Soqiyevich! Qimmatli aka, aziz opajon* kabi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi nutq uslubi hisoblanadi.

O'zbek tilining quyidagi nutq uslublari mavjud: 1) so'zlashuv uslubi; 2) publitsistik uslub; 3) ilmiy uslub; 4) rasmiy uslub; 5) badiiy uslub.

Bulardan so'zlashuv uslubi og'zaki nutqqa xos bo'lsa, qolgan uslublar esa ham og'zaki, ham yozma shakllarga ega. Masalan, ilmiy asar yoki ilmiy ma'ruza matni yozma nutqqa, ilmiy ma'ruzaning o'zi esa og'zaki nutqqa xosdir. Shuningdek, badiiy uslubning ham yozma va og'zaki (xalq og'zaki ijodi) ko'rinishi borligini bilasiz.

So'zlar ma'lum nutq uslubiga xoslanish-xoslanmaslik belgisiga ko'ra *uslubiy xoslangan* va *uslubiy betaraf* so'zlarga bo'linadi.

Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar uslubiy xoslangan so'zlar, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlar esa uslubiy betaraf so'zlar (erkin qo'llanadigan til birliklari) sanaladi.

Uslubiy betaraf so'zlar: *so'zlamog, gapirmog, uy, daftar, suv, katta, ovqat* va boshqalar.

Uslubiy xoslangan so'zlar: *mazkur, binobarin, dudoq, irin, qaroq, nigoh tashlamog, bayonnoma, nota* va boshqalar.

Nutqning og'zaki va yozma shakllari ham ana shunday xoslangan til vositalariga ega. Masalan, muayyan tasvirda *yuqorida, quyida* kabi so'z shakllari ko'proq yozma nutqqa xos, shuning uchun og'zaki nutqda *yuqorida aytilgan fikrlarga qo'shilaman* tarzidagi ifoda juda g'aliz.

Nutq uslublari o'rganuvchi tilshunoslik sohasiga uslubshunoslik deyiladi.

*So'zlashuv uslubi.* Oilada, ko'cha-ko'yda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo'llaniladigan nutq uslubi so'zlashuv uslubi sanaladi. So'zlashuv uslubi adabiy va oddiy so'zlashuv uslublarini o'z ichiga oladi.

Adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilingan so'zlashuv uslubi **adabiy** so'zlashuv uslubi, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlashuv uslubi esa **oddiy** so'zlashuv uslubi hisoblanadi.

So'zlashuv uslubining har ikki turi ko'pincha dialog shaklida ro'yobga chiqadi. Ikki shaxsning o'zaro so'zlashuvi dialogik nutq sanaladi. So'zlashuv uslubida so'zlar ko'pincha kinoya, piching, qochirmalarga boy bo'ladi. Bu uslubning yana bir o'ziga xos xususiyati erkinligidir.

*So'zlashuv uslubi.* Kundalik hayotda uyda, ko'cha-ko'yda, ish joylarida va boshqa joylarda kishilarning bir-biri bilan erkin muloqotga kirishuvi so'zlashuv uslubi orqali yuzaga chiqadi.

Oddiy so'zlashuv uslubida so'zlovchi nutq vaziyatidan kelib chiqib, axborot uchun eng kerakli so'zlarnigina ishlatadi. Qolganlari nutqiy vaziyatdan bilinib turadi yoki imo-ishora va mimikalar bilan to'ldiriladi. Masalan, kinoteatr chiptaxonasidan chipta olish uchun so'raysiz:

– *Beshinchidan ikkita* (Menga beshinchi qatordan ikkita chipta bering deb o'tirmaysiz).

So'zlashuv uslubining o'zi ikki turga bo'linadi:

1) adabiy so'zlashuv uslubi; 2) oddiy so'zlashuv uslubi.

Ma'lum adabiy til me'yorlariga bo'ysungan, tartibga solingan so'zlashuv uslubiga adabiy so'zlashuv uslubi deyiladi.

Adabiy tilning og'zaki shakli adabiy so'zlashuv uslubi orqali amal qiladi. Radioeshittirishlari, televideniye ko'rsatuvlari shunday uslubda olib boriladi.

Adabiy so'zlashuv uslubi kundalik muloqot uchun xizmat qiladi, o'qitish ishlari, tarbiya va tashviqot shu uslubda olib boriladi, badiiy adabiyot shu uslubda yaratiladi.

Adabiy til me'yorlariga doimo amal qilavermaydigan erkin muloqot shakli oddiy so'zlashuv uslubi sanaladi.

Oddiy so'zlashuv uslubida nutqiy vositalarni tejashga intilish bilan birga, bunga teskari bo'lgan nutqiy ortiqchalikka ham yo'l qo'yiladi.

Oddiy so'zlashuv uslubida gap bo'laklarining tartibi ham ancha erkin bo'ladi. Ba'zan shevaga xos so'zlar, qo'pol, dag'al so'zlar ham kuzatiladi.

So'zlashuv uslubining adabiy so'zlashuv turi ham, oddiy so'zlashuv turi ham og'zaki shaklda voqelanadi. Bunda adabiy so'zlashuv uslubi kundalik aloqa-aralashuvda yetakchilik qiladi.

Bu uslubda so'z tartibi qoidaga nomuvofiq bo'lishi (kecha konsert bo'ldi klubda); ko'chma, obrazli emotsional vositalar ko'proq (g'ayrat qil, shalvirama; Alini qarang, og'zi qulog'ida kabi) dialogik shaklda bo'lib, to'liqsiz gaplar va imo-ishoraning ko'p ishlatilishi (Kelyapti (navbatchi), Ketdimi? – Ha, kabi), takrorlar (Kelib-kelib shu gapni topdingmi?), talaffuzda erkinlik (na'lat (la'nat), yangitdan (yangidan), opti (olibdi) kabi) yaqqol namoyon bo'ladi. Oddiy so'zlashuv uslubi badiiy asarda personajlar nutqini individuallashtirishda keng qo'llanadi.

*Publitsistik uslub.* Ommaviy axborot vositalari uslubi publitsistik uslub sanaladi. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta'sir qilish bo'lib, soddalik, tushunarlilik, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishdir.

Publitsistik uslubning ham og'zaki va yozma shakllari mavjud. Radio-televide niye uslubi publitsistik uslubning og'zaki shakliga, gazeta, jurnal uslubi esa yozma shakliga xosdir.

*Publitsistik uslub.* Publitsistika (lot. *publika* – xalq, omma) davrning eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televide niye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televide niye), Oliy Majlis yig'inlarida, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi publitsistik uslub sanaladi.

Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: 1) yozma shakl; 2) og'zaki shakl. Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh maqolalar, felyeton va pamfletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar publitsistik uslubning yozma shakliga

mansubdir. Radio va televideniya chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqning nutqlari esa publitsistik uslubning og'zaki shaklidir.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lishlik, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariga ega. Bunday nutq uslubi ijtimoiy masalalarga harakatchanligi tufayli unda ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Masalan, *isyon, irqchilik, qo'poruvchilar, siyosiy tanglik, bitim* va boshqalar.

Publitsistik uslubda yozma nutqqa xos xususiyatlar (ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalarga oid leksikaning, intonatsion sintaktik vositalarning ishlatilishi) ham, badiiy uslubga xos belgilar (obrazli ifodalar, bo'yoqdor so'zlarni qo'llash) ham o'zaro uyg'unlashadi. Bu uslubda hayotiy voqea va dalillar oddiygina qayd qilinmay, jo'shqin va haroratli misralarda ifodalanadi, ulardan umumiy xulosalar chiqariladi hamda muhimi, xalqqa murojaat, undash, qiziqtirish orqali o'quvchiga ta'sir ko'rsatiladi<sup>1</sup>.

*Badiiy uslub. Tollarning ko'm-ko'k soch popuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning namli yuzlari kuldi.*

Ma'lum bir voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalovchi va shu yo'l bilan tinglovchiga estetik ta'sir etuvchi nutq uslubi badiiy uslub sanaladi.

Obrazlilik va estetik ta'sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir.

Badiiy uslub badiiy adabiyot, ya'ni badiiy asarlarga xos bo'lib, unda badiiylik, ifodaviylik, ta'sirchanlik kuchlidir.

*Badiiy uslub.*<sup>2</sup> Badiiy asarlarni ko'p o'qigansiz. Har bir tilning butun imkoniyatlari, bor boyligi, jozibasi badiiy asarlar orqali namoyon bo'ladi.

Badiiy asarlarning bayon qilish uslubi badiiy uslub hisoblanadi.

Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda adabiy tilning barcha imkoniyatlarini o'z ichiga olish bilan birga, o'zbek shevalariga, kasb-hunarga doir leksik

---

<sup>1</sup> Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Sharq, 2013. 116-b.

<sup>2</sup> Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. -T.: Ilm ziyo, 2010. 115-b.

birliklar, bugungi kundalik iste'moldan chiqib ketgan tarixiy so'zlar ham personajlar nutqi orqali ishlatila beradi.

Badiiy uslub o'quvchida estetik zavq uyg'otadi. Demak, badiiy uslub orqali ro'yobga chiqqan nutq ma'lum voqea-hodisa haqida axborot berish (kommunikativ vazifani bajarish)dan tashqari, o'quvchiga ta'sir qilish (ekspressiv) vazifasini ham bajaradi.

Badiiy uslub uchun obrazlilik, tasviriy ifoda vositalariga boylik xosdir.

Badiiy uslubdan boshqa barcha uslublar ijtimoiy hayotning ma'lum sohasi doirasida chegaralangandir. Badiiy uslub, ulardan farqli ravishda, inson amaliy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Shuning uchun unda ilmiy uslubning ham, publitsistik uslubning ham, so'zlashuv uslubining ham, rasmiy uslubning ham elementlari namoyon bo'laveradi.

Bu uslubda har bir yozuvchining voqelikni badiiy idrok etish ko'lami, ijod usuli, poetik mahorati badiiy nutqning janr xususiyatiga muvofiq tarzda bir-biridan farqlanadi. Shunga ko'ra badiiy nutq uslubi nisbatan keng imkoniyatlarga ega o'ta qamrovli va boy nutq ko'rinishidir. Barcha turdagi san'at va adabiyot asarlari shu uslubda yaratiladi<sup>1</sup>.

*Ilmiy uslub.* Daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon qiluvchi uslub ilmiy uslub sanaladi.

Ilmiy uslubga mantiqlilik, aniqlik, ilmiy atamalarning keng qo'llanilishi xos bo'lib, barcha ilmiy asarlar, jumladan, maktab darsliklari ham shu uslubda yozilgan.

Tobe so'zning hokim so'z talabiga ko'ra ma'lum kelishik qo'shimchalari yoki ko'makchi bilan kelishiga boshqaruv deyiladi.

*Ilmiy uslub.*<sup>2</sup> Ilm-fan sohasida qo'llaniluvchi nutq uslubi ilmiy uslub hisoblanadi.

Ilmiy uslub daliliy ma'lumotnomalar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga (ta'rif-qoidalarga) ega bo'lish, atamalarining keng qo'llanilishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi.

---

<sup>1</sup> Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Sharq, 2013. 119-b.

<sup>2</sup> Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. -T.: Ilm ziyo, 2010. 121-b.

Unda narsa-hodisa mohiyatini ta'riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarni bayon etish muhim hisoblanadi, adabiy me'yorga qat'iy rioya etilgani holda majhul nisbatdagi fe'llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlatiladi<sup>1</sup>.

Ilmiy uslub ham o'z ichida ikki guruhga bo'linadi: 1) sof ilmiy uslub; 2) ilmiy-ommabop uslub.

Sof ilmiy uslub muayyan fan sohasidagi kishilarga nisbatangina qo'llaniladi. Shuning uchun bu uslubda fanning ma'lum sohasiga doir atamalar keng qo'llaniladi.

Sof ilmiy uslubning o'zi ham fan tarmoqlari bo'yicha bir-biridan farqlanadi. Masalan, matematika uslubi bilan tarix yoki adabiyotshunoslik uslubi bir xil emas. Tarix va adabiyotshunoslik uslubi publitsistik uslubga yaqinroq tursa, matematika fanining bayon qilish uslubida eng yuqori darajadagi mavhumlashtirish, turli xil formulalar, shakliy ifodalar orqali ilmiy xulosalarni bayon qilish kuchli bo'ladi.

Ilmiy-ommabop uslubda esa fan yutuqlarini keng ommaga yetkazish maqsad qilinadi. Shuning uchun bunday uslub publitsistik uslubga yaqinroq bo'ladi. Ma'lum fan sohasiga doir atamalar qo'llanilsa ham, lekin bu atamalar xalqqa tushunarli bo'lishi uchun izohlanadi.

Keng jamoatchilikka tushunarli bo'lgan, tasvir bayonida emotsionallik, obrazlilik mavjud bo'lgan uslub ilmiy-ommabop uslub sanaladi. Ko'pchilikka mo'ljallangan ma'ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning ko'rinishlaridir<sup>2</sup>.

«Ishtiyoq» so'zining badiiy termin bo'lishiga uning grammatik ma'nosi asos bo'lgan. So'z yasalishi ishtiyoq deyiladi. Shunga asosan gapda bir o'zakdan yasalgan so'zlarni keltirishni «ishtiyoq» deb ataganlar. Biz bu hodisani o'zakdoshlik va uni vujudga keltirishni o'zakdoshlashtirish deb atasak ham bo'ladi. Lekin ishtiyoq so'zini yodimizdan chiqarmasak yaxshiroq bo'ladi. Navoiy baytlarida keltirilgan «ranj», «ganj», «jahon» so'zlari e'tibori bilan tovushdoshlik, «ganja», «ganj» va «ganjur» so'zlari e'tibori bilan o'zakdoshlik bor. Chunki bularning hammasi xazina ma'nosidagi «ganj» o'zak so'zidan yasalgan. «Ganjur»ning ma'nosi «ganj» egasidir. Bunda Ganjaviyning Ganjada haqiqiy ganj ekanligi va uning jahon ahamiyatiga ega

<sup>1</sup> Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Sharq, 2013. 114-b.

<sup>2</sup> Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Sharq, 2013. 115-b.

bo'lgan besh ganjni qoldirganligining haqiqatligi tovushdoshlik va o'zakdoshlik bilan ta'kidlangan. (*Alibek Rustamov*)

Rasmiy uslub. Adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xos bo'lib, muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo'lgan nutq uslubi rasmiy uslub sanaladi.

Bu uslub davlat arboblari o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda, idora, korxonalar, muassasalarning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog'ozi singari ish yuritish qog'ozlarida qo'llaniladi.

Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi: 1. Tashkiliy hujjatlar (guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shartnoma va boshqalar). 2. Farmoyish hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish). 3. Ma'lumot-axborot hujjatlari (ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, tavsifnoma, tarjimayi hol tilxat, tushuntirish xati, e'lon va boshqalar). 4. Xizmat yozishmalari (taklifnoma, telegramma, xatlar)

Barcha qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qog'ozlari, idoralararo yozishmalar va shu kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Rasmiy-idoraviy uslubda gaplar ixcham va aniq bo'ladi. Bu uslubda qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi kabi qoliplashgan so'zlar va so'z birikmalari keng qo'llaniladi.

Rasmiy uslub.<sup>1</sup> Huquqiy qonunchilik va ish yuritish munosabatlari doirasida qo'llaniluvchi nutq uslubi rasmiy uslub hisoblanadi.

Rasmiy uslub quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Sof qonunchilik uslubi (qonun, farmon, fuqarolik va jinoiy aktlar, nizomlar uslubi).

2. Idoraviy-devonxona uslubi (buyruq, ariza, talabnoma, bildirgi, tavsifnoma, tarjimayi hol, ishonchnoma, dalolatnoma); diplomatik uslub (nota, bayonotnoma, bitim, konvensiya va boshqalar).

Rasmiy uslub deyarli yozma shaklda ro'yobga chiqadi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan xoli bo'ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi – axborot

---

<sup>1</sup> Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. -T.: Ilm ziyo, 2010. 119-b.

uzatish va da'vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi. Masalan, ma'lumotnomada axborot berilsa, buyruqda da'vat etish, axborot o'z aksini topgan bo'ladi.

Rasmiy uslubga mansub har qaysi turning o'ziga xos leksik, grammatik xususiyatlari mavjud. Masalan, qaror, farmonlarning o'ziga xos tomoni shundaki, bunday matnlardagi gaplarning kesimi III shaxs majhul nisbatidagi fe'llar orqali ifodalanadi (*ogohlantirilsin, topshirilsin* kabi). Ma'lumotnomada esa birinchi gapning kesimi gap boshida keladi.

Rasmiy ish qog'ozlarining sintaktik tuzilishi qat'iy qoliplarga bo'ysunadi. Masalan, «Ushbu ma'lumotnomani ko'rsatuvchi G'. Mo'minov haqiqatan ham O'zbekiston Milliy universitetining matematika fakultetida dekan o'rinbosari lavozimida ishlaydi...»

Rasmiy uslub tilining asosiy xususiyati aniqlik va ixchamlikdir, unda muayyan nutqiy shtamplar, kasbga oid so'zlar, atamalar, tayyor sintaktik qurilmalar keng qo'llanib, nutqning aniq va ravshan ifodalanishini ta'minlaydi. Tayyor nutq formulalari (shu asosida, shunga ko'ra, ma'lum qilamizki, ... ni e'tiborga olib, ... ga ko'ra, ... biz, quyida imzo chekuvchilar, ... ga asosan (muvofig), ... uchun, ... dan kelib chiqib, ... sharti bilan, ... berilsin, ... taqdirlansin kabi) hujjat matnining darak-axborot xarakterida bo'lishini, so'zlarning bir ma'noda ishlatilishini, badiiy-tasviriy vositalarning bo'lmasligini, fe'lning majhullik va buyruq-istak shakllarining, qo'shma gap turlarining keng qo'llanilishini talab qiladi<sup>1</sup>.

Muloqot vaziyati va sharoitiga muvofiq publitsistik, badiiy, ilmiy va rasmiy uslublar nutqning yozma shakliga mansubdir. Bu uslublar, asosan, yozma nutq shaklida namoyon bo'ladi.

Ayniqsa, ish qog'ozlari rasmiy uslubning faqat yozma shaklida bo'ladi.

Publitsistik, badiiy, ilmiy va rasmiy uslublarda yozma shakl yetakchilik qilsada, o'rni bilan ba'zan og'zaki shakldan ham voz kechib bo'lmaydi.

Masalan, ilmiy uslubning asosiy ko'rinishlari bo'lgan monografiya, dissertatsiya, darslik, maqola va shu kabilar, albatta, yozma shaklda yaratilsada,

---

<sup>1</sup> Rafiyev A., G'ulomova N. Ona tili va adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Sharq, 2013. 112-b.

ilmiy ma'ruzalar og'zaki shaklda o'qiladi. Yoki badiiy uslubga mansub sahna asarlari ijrosidagi og'zakilikni inkor etib bo'lmaydi.

## II BOB. Ona tili ta'limida madaniy nutqni shakllantiruvchi muhim omillar

### 2.1. Madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlari

Tilshunoslikda «*nutq madaniyati*» termini, asosan, ikki xil ma'noda qo'llanadi, ya'ni: 1) tildan bema'lol, maqsadga va nutqiy vaziyatga muvofiq tarzda foydalana olish, nutqda zaruriy sifatlarning barchasini mujassamlashtira bilishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami; 2) tilshunoslikning tildan maqsadga va nutq vaziyatiga muvofiq tarzda foydalanish, nutqda zaruriy sifatlarni mujassamlashtirish qoidalarini ilmiy asosda o'rganish va o'rgatish bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

Nutq madaniyati sohasining adabiy norma qonuniyatlarini o'rganishdan asosiy maqsadi aslida yozma va og'zaki adabiy nutq uchun zarur bo'lgan madaniy holatlarni belgilashdir. Lekin nutq madaniyati sohasi adabiy norma tizimiga faqat tayyor lisoniy holatdan, ya'ni tayyor til vositalaridan foydalanuvchi sifatida emas, balki til hayotiga faol aralashuvi sifatida ham yondashadi<sup>1</sup>.

*Madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlari.* Nutqning madaniyligini ta'minlaydigan kommunikativ sifatlari bir qancha bo'lib, ularning asosiylari qatorida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi. Mazkur sifatlarga bog'liq holatda nutq madaniyatining ikki bosqichi farqlanadi, ya'ni nutqda to'g'rilik sifatining mavjudligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi hisoblanadi, nutqda qolgan boshqa sifatlarni ham mujassamlashtirish esa nutq madaniyatining ikkinchi – oliy bosqichi sanaladi.

Xalqda «*Mehmon otangdan aziz*», «*Ustoz otangdan ulug'*» degan hikmat bor. Biror aqlli zot, otadan ulug', otadan aziz inson bo'lmaydi deb aytgan, chog'i, keyingi vaqtda «*Mehmon otangdek aziz*», «*Ustoz otangdek ulug'*» deyish urf bo'ldi. Otadan

---

<sup>1</sup> Begmatov E. O'zbek nutqi madaniyati asoslari. –T., O'qituvchi. 1991. 89-bet.

ulug' va aziz kishining yo'qligi – haqiqat. Aynan shuning uchun ham bu tashbeh ishlatiladi.

Maqolni tahrir qiluvchi oshnolarga maslahatim bor: Agar «-dan» o'rniga «-dek» qo'shishni juda xohlasangiz, xalqning boshqa bir iborasi borki, uni shunday tahrir qilsa, savobli ish bo'ladi. «To'ylar qiling, qamishdan bel bog'lab xizmat qilay», – deydilar. Aslida, qamishdan bel bog'lash emas, qamishdek bel bog'lab xizmat qilish to'g'riroq bo'ladi.

Xotinlarni *falonchi xonim* yoki *begim* deb atash bor. Bu so'zlardagi *-im* qo'shimchasini egalik qo'shimchasi deb tushunish bor. U holda nima uchun egalik qo'shimchasi qo'shilganda *xon* bilan *bek* ayol kishiga aylanadi, degan savol tug'ilishi tabiiydir. Vaholanki, *xonim* va *begim* so'zlaridagi *-im* qo'shimchasi egalik qo'shimchasi emas. Qadim turkiy tillarda «ona» ma'nosidagi *uma* so'zi bo'lgan. *Begim* va *xonim* so'zlari tarkibidagi *-im* ana shu *uma* so'zining ixchamlashganidir. Demak, *xonim* «mening xonim» emas, «xon ona» va *begim* «mening begim» emas, «beg ona» degan ma'noda ekan.

Ba'zan *hayratomizni hayratomuz* shaklida ishlatadilar. Buning to'g'ri shakli qaysi va *omuz* yoki *omiz* nima degani? Forscha talaffuzi *omixtan*, tojikchasi *omextan* degan fe'l bor, ma'nosi «qormoq, qorishtirmoq, aralashmoq, aralashmoq»dir. Yana *omuxtan* degan fe'l ham mavjud bo'lib, bunisi «aralashmoq, aralashmoq» ma'nosidadir. *M* tovushidan so'ng *i* yoki *e* bo'lsa, ya'ni *omixtan* yoki *omextan* deyilsa, «aralashmoq, aralashmoq» degan ma'noda bo'ladi, agar *i* yoki *e* o'rnida *u* bo'lsa, «o'rganmoq, o'rgatmoq» degan ma'no chiqadi. *Omez* yoki *omiz* bo'lsa, «aralashar, aralashmoq», *omuz* bo'lsa «o'rganar, o'rgatar» ma'nolarini anglatadi. Binobarin, *hayratomuz* emas, *hayratomiz* degan to'g'ridir. Chunki *hayratomuz* deyilsa, «hayrat o'rgatar» tarzidagi ma'no chiqadi. *Omixta* so'zi ham shu fe'ldan bo'lib, buning ma'nosi «aralash» degani. Shuning uchun *omuxta yog'* deganga nisbatan *omixta yog'* degan to'g'riroq bo'ladi. *Omixta* va *omizning* ayrim shevalar nuqtayi nazaridan *omuxta* va *omuz* deb aytilishi xato emas, chunki *m* dan keyingi *i* ning *m* ta'sirida lablanib *u* ga aylanishi qonuniy hodisadir, ammo adabiy til nuqtayi

nazaridan *hayratomiz* bilan *ibratomuzdagi omiz* va *omuzni* farqlash lozim. Birinchisi «hayrat aralash», ikkinchisi «ibrat o'rgatar» degan ma'nodadir. (*A.Rustamov*)

Aytish joizki, nutqning to'g'riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarning poydevori vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham nutqning to'g'riligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi bo'lib, maktab ona tili ta'limining asosiy maqsadi ham o'quvchilarda aynan to'g'ri nutq tuzish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

To'g'rilik sifati nutq tarkibi va qurilishining amaldagi adabiy til me'yorlariga to'la mosligi asosida yuzaga keladi. Adabiy til me'yorlariga amal qilinmasdan tuzilgan nutq to'g'ri nutq bo'la olmaydi.

Siz bilasizki, adabiy me'yor til unsurlaridan til qonuniyatlariga uyg'un, jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida barqarorlashgan ijtimoiy-nutqiy amaliyot va an'anaga muvofiq holda foydalanish qoidalari bo'lib, o'zbek adabiy tilida quyidagi me'yorlar farqlanadi: 1) leksik (so'z qo'llash) me'yorlar; 2) talaffuz me'yorlari; 3) so'z yasalishi me'yorlari; 4) morfologik me'yorlar; 5) sintaktik me'yorlar; 6) uslubiy me'yorlar.

Adabiy til me'yorlarining odatdagi nutqda buzilishi nutqning noto'g'ri tuzilishiga olib keladi. Ammo badiiy adabiyotda muayyan estetik maqsad bilan adabiy til me'yorlaridan chekinish holatlari ham kuzatiladi va ular badiiylik uchun xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi grammatik me'yorlarga ko'ra, ega shaxs bo'lmasa, u ko'plik sonda bo'lsa-da, kesim ko'plik qo'shimchasini olmaydi. Ammo badiiy asarda tasvirga erka bir ohang berish maqsadi bilan mahoratli ijodkor Abdulla Qodiriy *Bu xabarni eshituvchi – Kumushbibining qora ko'zlari jiq yoshga to'lib, kipriklari yosh bilan belandilar* tarzidagi go'zal jumlaning tuzadi.

Nutq – bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan munosabatda namoyon bo'lishidir<sup>1</sup>.

Endi *otlanmoq* so'zi bilan bog'liq misollarga e'tibor qaratamiz. Taraqqiyot shunchalik tezlashib ketdiki, sal bo'shshsang, yo modadan orqada qolasan, yo

---

<sup>1</sup> Tojiyev Y., Hasanova N., Tojimatov H. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. –T., Fan. 1994. 101-bet.

avtobusdan. Hatto soʻz tugʻilish surʻati ham bu taraqqiyot oldida juda imillayapti. Masalan, qadimda *Yoʻlga otlandi* degan gap bor edi. Hozir otlar oʻrnini texnika egallab oldi. Lekin *Yoʻlga otlandi* gapi hamon tilimizda. *Yoʻlga otlangan* odam esa yalpayib mashinada oʻtirgan boʻladi. Demak, *Yoʻlga mashinalandi* degan gap tugʻilishi kerak edida. (*O. Farmonov*)

Oʻtmishda *fuqaro* oʻrnida, asosan, *tabaa*, *raiyyat* soʻzlari, baʼzan shu soʻzning oʻzi ham qoʻllangan. Alisher Navoiy asarlarida *raiyyat* soʻzi koʻp uchraydi.

Shoʻrolar zamonida bu soʻz oʻrnida asli lotincha boʻlmish *grajdan* soʻzi ishlatilgan. Mustaqillikka erishilgach, atama sifatida *fuqaro* joriy etildi. Bu asli arabcha boʻlib, *faqir* soʻzining koʻplik shaklidir. Arab tilida «yoʻqsil», «kambagʻal», «muhtoj», «bechora» maʼnolarini bildiradi. Lekin oʻzbek tiliga kirib kelgach, maʼnosi oʻzgarib, «raiyyat, grajdanlik» maʼnosini kasb etgan. Qolaversa, ajdodlarimiz soʻzlaganlarida, yozganlarida kamtarinlik yuzasidan oʻzlarini (*men* soʻzini ishlatishni odob yuzasidan takabburlik deb bilib) *fuqaro*, *faqiru haqir* deb ataganlar: «*Faqiru haqir janoblaridan oʻtinib soʻraydikim...*», «*Faqiringizni afv etgaysiz!*» va hokazo kabi. Demak, *fuqaro* soʻzi mumtoz adabiyotda va jonli soʻzlashuvda qoʻllanilgan. Shu sababli *fuqaro* soʻzining atama sifatida qabul etilishi va joriy qilinishi asosli va qonuniydir. (*A.Ibrohimov*)

*Yozma nutqning toʻgʻriligi va meʼyor.* Siz bilasizki, adabiy tilning yozma shaklida toʻgʻrilik sifatining taʼminlanishi uchun yana ikki turli meʼyorga amal qilish lozim. Bu meʼyorlar quyidagilardan iborat: 1) imlo (orfografik) meʼyorlari; 2) tinish belgilari (punktatsion) meʼyorlari.

Imlo meʼyorlari mutaxassislar tomonidan til qonuniyatlari, shuningdek, tarixiy anʼanalarga suyangan holda aniq qoidalar shaklida tayyorlanadi va tegishli davlat organi tomonidan tasdiqlanadi. Bu qoidalar ayni paytda imlo lugʻatlarida oʻz aksini topadi. Imlo qoidalari savodxonlikni taʼminlashning asosi hisoblanadi.

Yozuv madaniyatini shakllantirishda tinish belgilarini qoʻllash qoidalarining alohida ahamiyati bor. Tinish belgilari yozuvning harflar, raqamlar kabi boshqa vositalari hamda soʻzlar, morfemalar kabi til birliklari bilan koʻrsatish mumkin boʻlmagan turlicha fikriy munosabatlarni, psixologik va intonatsion holatlarni

ifodalashda favqulodda muhim o'rin tutadi. Bu belgilar tilning sintaktik qurilishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, yozma nutqni to'g'ri, ifodali, aniq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligini, tez tushunilishini ta'minlashda benihoya zaruriy vositadir.

Alibek Rustamovning «So'z xususida so'z» asaridan olingan parchada o'zbek tilida ma'nodoshlik hodisasining namoyon bo'lishiga diqqat qaratamiz

*Havo harakatini bildiruvchi so'zlar yel, bod, shamol, janub, sabo, dabur, dovul, shurta, esin, nasim, shabboda, tundbod, garmsel, samum, sarsar, izg'irin, bo'ron, bo'rag'on, purga, to'fon, tayfun, urag'an yoki uragan, gird bod, quyun, uyurmadir.*

*Shamol* so'zining o'zi, aslida, shimoldan esgan yelni bildiradi. Lekin hozirgi o'zbek tilida bu so'z keng ma'noda qo'llanadi. Maxsus eski kitoblarda janubdan esgan yel *janub* deb ataladi, ammo bugungi o'zbekchada *janub* so'zi mazkur ma'noda butunlay ishlatilmaydi. G'arbdan esgan *yel* eski kitoblarda *dabur* deyilgan, ammo hozir bu so'z *dovul* shaklini olgan va vayronalik keltiradigan kuchli shamolni bildiradigan so'zga aylangan.

*Sabo* so'zi she'rda ko'p ishlatilgani uchun o'z shakli va ma'nosini o'zgartirmagan. Sharqdan esadigan yel *sabo* deb ataladi. *Sabo* – tong yeli degan fikr ham bor. Bu fikrning paydo bo'lishiga tongda ko'pincha Sharqdan yel esib turishi sabab bo'lgan.

*Esin, nasim* va *shabboda* yoki *shabada* so'zlari mayin yelni bildiradi. *Samum* va *garmsel* so'zlari issiq shamolni, *sarsar, izg'irin* yoki *izg'iriy* sovuq shamolni bildiradi. Bir ishni qilayotganda kishiga yordamlashadigan, masalan, kemani kerakli tomonga suradigan yel *shurta* deb ataladi.

*Bo'ron, buran, burya, purga* degan so'zlarning kelib chiqishi bir. Bular «*bo'ron*» ma'nosidagi *bo'r* o'zagidan yasalgan so'zlardir. Mazkur so'zlarning rus va o'zbek tillaridagi ma'nolari haqida gapiradigan bo'lsak, ruschada *buran* deganda, asosan, cho'l yoki dalada qishda yerdagi qorlarni to'zg'itadigan kuchli shamol tushuniladi. O'zbek tilida bu ma'noda *izg'irin* yoki *izg'iriy* so'zlari qo'llanadi.

O'zbek tilida *bo'ron* deganda, umuman, shiddatli shamol tushuniladi. Rus tilida bu ma'noda *burya* so'zi qo'llanadi. Amerika qit'asi atrofida bo'ladigan o'ta kuchli okean shamolini *urag'an* yoki *uragan*, janubi sharqdagi Tinch okeanning kuchli

shamolini *tayfun* deb ataydilar. Yog'in, shamol va sel natijasida yer yuzini yoki uning katta qismini suv bossa, buni *to'fon* deyiladi. *Tayfun* bilan *to'fon* so'zlarining kelib chiqishi bir.

Aylanma shamolga nisbatan o'zbek tilida *quyun. uyurma* va *gird bod* so'zlari qo'llanadi. Havoshunoslikda *siklon* deb havoning bulutlarni quyushtiradigan aylanma harakatiga aytiladi.

Abdulla Qahhor so'z qo'llash borasidagi quyidagi fikrlari tiyran ma'noga ega:

Ayrim ijodkorlar yozgan narsalarini o'zlari bir kitobxon sifatida ko'zdan kechirishga yo hafsala qilmaydi, yo ko'zdan kechirib, ko'rgan chatoqliklarini tuzatishga erinadi. Har ikkisi ham yozuvchi uchun gunoh... Kitobxonni gangiratadigan mana shunday gaplar bilan qanday kelishdi ekan:

Hikoyada *Jalanglab turgan qora ko'zlari ko'zimga sanchilar edi* deydi. Shunday vaqtda *sanchiladi* degan so'z ruschada qo'llanadi. Lekin o'zbekchada hech qachon aytilmaydi. O'zbekcha bilgan rus yozuvchisi qanday qilib *Yuragim tutday to'kildi* degan gapni aynan tarjima qilib ishlatadi. Boshqa hikoyada chol *ehhe* deb yo'taladi. «Qahramonning o'limi»da bomba *bux* deb yoriladi. Bular ham ruschadan aynan ko'chirilgan. «Yashasin do'stlik»da *shamol* bilan *shabadaning* farqiga borilmaydi. Uningcha, «Ochiq derazadan mayning mayin shamoli esadi». *Tasavvur qilar edim* demay, *Xayolim uni tasavvur qilar edi* deydi. *Otni jadallatdi* deyish o'rniga *Otning jilovini siltab, tezlashini qistadi* deydi. (Abdulla Qahhor)

*Nutqning aniqligi.* So'z ma'nosi, uning nozikliklarini yaxshi o'zlashtirmasdan turib, aniq nutq tuzib bo'lmaydi. Masalan, *Avlodlar merosini o'rganamiz* jumlasida ifodalanmoqchi bo'lgan mazmun *avlod* so'zining leksik ma'nosiga to'g'ri kelmaydi. *Avlod* so'zi asli arabcha bo'lib (uning birlik shakli *valad*, ya'ni «bola» demakdir), o'zbek tilida «bir ota-bobodan tarqalgan nasl», «bir davrda tug'ilib o'sgan kishilar» kabi ma'nolarga ega. Gap meros haqida ketar ekan, *ajdod* so'zi qo'llanishi lozim edi, chunki u ham asli arabcha bo'lib, uning ma'nosi «ilgari o'tgan nasl-nasab, ota-bobolar» demakdir. Shunga ko'ra, mazkur jumla *Ajdodlar merosini o'rganamiz* shaklida tuzilishi kerak edi. Ko'rinadiki, *avlod* so'zi tildagi leksik ma'nosiga muvofiq tarzda qo'llanmaganligi uchun nutqning aniqligiga futur yetgan.

Alibek Rustamovning «Soʻz xususida soʻz» asarida *tavsif va tasvir* soʻzlarining maʼnolari, ulardagi farqli jihatlar va qoʻllanish oʻrinlarini quyida alohida taʼkidlaydi.

Baʼzan nutqda maʼnosi bir-biriga yaqin soʻzlarning biri oʻrnida ikkinchisini ishlatish hollari uchrab turadi. Bu nutqqa salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Baʼzilar *tavsif* soʻzi oʻrnida *tasvir* soʻzini ishlatadilar. Vaholanki, *tavsif va tasvir* soʻzlarining orasida maʼno farqi va ularning har qaysisining oʻz ishlatilish oʻrni bor.

Bir narsa sifatlarining ogʻzaki yoki yozma bayoni – *tavsif*; surati, shakli, rasmi esa *tasvir* boʻladi. *Tavsif*dan kishida tushuncha hosil boʻladi, *tasvir*dan tasavvur vujudga keladi. Masalan, bir mashinaning tuzilishi va ishini bayon qilish – bu oʻsha mashinaning *tavsifi*, shu mashinaning rasmi yoki tuzilish chizmasi uning *tasviridir*. Yana bir misol: miya tuzilishini soʻz bilan tushuntirish – *tavsif* uning rasmi yoki chizmasi *tasvir* boʻladi.

Baʼzan *tasvir* soʻzi bayonga nisbatan ham qoʻllanishi mumkin. Ammo u faqat badiiy bayonni anglatadi yoki *tavsif* darajasida boʻlganini bildiradi. Masalan, yozuvchi parovozni biror boshqa narsaga oʻxshatsa yoki *parovoz pishqirib kelmoqda* desa, aslida, bu ham *tavsif* boʻlsa-da, yaʼni soʻz bilan bayon etilgan boʻlsa ham, buning asosida tasavvur yotganligi uchun *tasvir* deyish mumkin. Shunday qilib, *tasvir* soʻzi *tavsif* soʻzi oʻrnida faqat badiiy *tavsifga* nisbatan va koʻchma maʼnoda qoʻllanishi mumkin ekan.

*Chopmoq* bilan *yugurmoq* feʼllari orasida ham farq bor, lekin bir-biriga yaqinlashib keladigan maʼnolari ham bor. Bu feʼllarni maʼno jihatidan yaqinlashtirgan harakat «bolalarning chopishi va yugurishi»dir. Bolaning chopishi bilan yugurishida, aslida, farq bor. Agar bola oʻzini ot mingandek tasavvur qilib, uni qamchilagandek harakat bilan yugurib ketsa, *bola chopib ketdi*, aks holda *yugurib ketdi* deyiladi. Lekin bunga eʼtibor bermaslik natijasida baʼzan *chopmoq* feʼli *yugurmoq* va goho *yugurmoq* feʼli oʻrnida *chopmoq* feʼlini ishlatish hollari uchrab turadi. *Chopmoq* feʼlining tub maʼnosi «qoʻlni biror qurol bilan yoki qurolsiz koʻtarib urib, biror ishni amalga oshirmoq»dir. *Yer chopmoq* deganda «ketmonni koʻtarib yerga urish», *qilich chopmoq* deganda «qilichni koʻtarib urish», *goʻsht chopmoq*

deganda «boltani ko'tarib urish», *ot chopmoq* deganda «qamchini ko'tarib urish» nazarda tutilgan.

Hozir shevalarda uchraydigan *loychapti*, adabiy tildagi *betgachopar* degan iboralarda ham *chopmoq* fe'lining o'sha tub ma'nosi nazarda tutilgan. Xulosa shuki, *chopmoq* qo'lga aloqador, *yugurmoq* – oyoqqa.

O'zbek tilida *muhabbat* degan so'z shu qadar rango-rang ma'nolarga egaki, hayratda qolamiz. *Yoqtirib qolmoq*, *ko'ngil bermoq*, *moyil bo'lmoq*, *xushtor bo'lmoq*, *oshufta bo'lmoq*, *dil bermoq*, *mubtalo bo'lmoq*, *maftun bo'lmoq*, *mahbub bo'lmoq*, *oshiq bo'lmoq*, *yaxshi ko'rmoq*, *ishqi tushmoq*, *ishqi foniy*, *ishqi boqiy*, *sevgi*, *muhabbat*, *mehr* va hokazolar. Tabiiyki, bular orasida boshqa tillardan kirganlari ham bor. Biroq ularning barchasi – teng huquqli o'zbek so'zlari.

Mumtoz adabiyotda *ishq* so'zining o'zi ikki xil ma'noni ifodalaydi. *Ishqi foniy* – mahbubaga nisbatan sevgi. *Ishqi boqiy* – Tangrining diydoriga yetish...

Bugungi kunimizga kelsak... Boshqa tillarda uchrashi mushkul bo'lgan g'alati holatlarni ko'ramiz. *Vatanga moyil bo'lmoq* degan ibora kulgili tuyuladi. *Vatanni sevmoq* deyiladi. *Ota-ona mehri*, *farzandning ota-onani yaxshi ko'rishi*, *farzand mehri* deyiladi.

Shunday qilib, *yoqtirib qolmoq* bilan *ko'ngil bermoq*, *ko'ngil bermoq* bilan *oshiq bo'lmoq*, *oshiq bo'lmoq* bilan *sevmoq*, *sevmoq* bilan *muhabbat*, *muhabbat* bilan *yaxshi ko'rmoq*, *yaxshi ko'rmoq* bilan *mehr* orasida uzoq masofa bor.

*Nutqning aniqligi va badiiy nutq*. Badiiy nutqda so'zlar o'z va hatto ko'chma ma'nolaridan tashqari ham o'ziga xos yangidan yangi ma'no qirralarini kasb etishi va shu tarzda badiiy tasvirning yanada aniqligini ta'minlashi mumkin. Masalan, *Miryoqub g'ururining kaltaklanishidan kelgan bir zaharxanda bilan kuldi*, *injener esa burungi kular yuzini ham no'qtalab oldi* (Cho'lpon, «Kecha va kunduz») gapidagi *g'ururning kaltaklanishi* va *kular yuzini no'qtalamoq* birikmalarida *kaltaklanishi* va *no'qtalamoq* so'zlari kasb etgan ma'no nozikliklari («g'ururni azobli darajada poymol qilish», «keskin va tamoman to'xtatmoq») bilan matnga ham aniqlik, ham ta'sirchanlik baxsh etgan.

Oddiy nutqda *Qor yonadi* deyilsa, nutqning aniqligi buzilgan bo'ladi. Chunki qor – yonmaydigan narsa. Ammo *Qalovini topsang, qor yonar* degan maqolda, ya'ni badiiy nutqda fikr go'zal, obrazli va mubolag'ali ifodalangan. Bunday holatda nutq aniqligining buzilishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

*Nutqning mantiqiyligi.* Alisher Navoiy o'zining «Majolis un-nafois» asarida shunday bir voqeani hikoya qiladi. Bahorning yomg'irli kunlaridan birida u «Xuroson mulkida turkiy va forsiyda malik ulkalom» Lutfiy bilan uchrashib qoladi. Mavlono Lutfiy Amir Xusrav Dehlaviyning bir she'ridagi go'zal ma'no va o'xshatish haqida juda ham maqtov bilan gapirib beradi, ya'ni: «Mahbuba yomg'irli kunda yo'lda tiyg'anib yiqilib ketay deydi. U shu qadar go'zal va nozikki, yog'ayotgan yomg'ir rishtasini ushlab, uning madadi bilan o'zini o'nglab oladi». Bu ta'rif Navoiyga behad ma'qul tushadi. Saroydagi oliy adabiy majlislarning birida Navoiy bu o'xshatish haqida shoh Husayn Boyqaro huzurida gapirib, shohning ham hayratlanishini kutadi. Ammo Boyqaro «Yuqoridan pastga tushayotgan yog'in rishtasi yiqilayotgan kishi uchun madad bo'la olmaydi» deb, e'tiroz bildiradi. Navoiy Boyqaroning o'tkir va nozik mantiqi va she'rfahmlikdagi zakovatiga qoyil qoladi. Shoh va shoir Husayn Boyqaro mazkur holatda fikr mantiqiyligidagi buzilishni ilg'agan. (*N. Mahmudov*)

Mantiq va grammatika har qanday nutqning tayanchi, har qanday nutq sog'lomligining zaminidir. Ulug' donishmand bobomiz Forobiy grammatika va mantiq ilmining favqulodda ahamiyati haqida quyidagilarni qayd etgan: «Grammatika odamlar nutqini to'g'rilagani kabi – u shuning uchun ham vujudga kelgandir – mantiq ilmi ham xato kelib chiqishi mumkin bo'lgan joyda tafakkurni to'g'ri yo'ldan olib borish uchun aqlni to'g'rilab turadi. Grammatikaning tilga va til ifodalariga bo'lgan munosabati mantiq ilmining aql va aqliy tushunchalarga bo'lgan munosabati kabidir. Grammatika har doim til ifodalarida xatolar kelib chiqishi mumkin bo'lganda, tilning o'lchovi bo'lganidek mantiq ham har doim aqliy tushunchalarda xato kelib chiqishi mumkin bo'lganda, aql o'lchovidir».

Mantiqiy nutq tuzish uchun so'zlovchi fikr predmetini atroflicha bilishi, mantiqiy tafakkur qoidalaridan boxabar bo'lishi kerak, ayni paytda til birliklarining leksik-semantik va grammatik mohiyati, ularning bog'lanish xususiyatlarini ham nazardan

qochirmasligi zarur. Aytaylik, so'zlarning jumla tarkibida mantiqiy-mazmuniy ziddiyatsiz birika olishi, mantiqqa uyg'un qo'llanishi uchun ularning leksik-semantik mohiyatini yetarli darajada bilish lozim. Masalan, *Traktor va mashinalar yelday uchadi* gapini mantiqiy deb bo'lmaydi, chunki unda mantiqiy-mazmuniy ziddiyat bor. Mashina mantiqan juda tez, ya'ni yelday uchishi mumkin, ammo traktor bu xususiyatga ega emas. Demak, jumlada mantiqiylik sifati buzilgan.

#### *Mantiqiylik va grammatik vositalar.*

Gapda so'zlar tartibining to'g'ri, tilning sintaktik tabiatiga uyg'un bo'lishi mantiqiy nutq tuzishda jiddiy ahamiyatga molikdir. So'z tartibidagi nuqson jumlada ifodalangan fikrning mantiqan yanglish yoki ikkiyoqlama anglanishiga olib keladi. Masalan, *Loqaydlik tufayli ko'rsak ham, indamaymiz* tarzidagi jumlada so'z tartibidagi nuqson sababli fikr ikki xil tushunilishi mumkin, ya'ni «*loqaydlik tufayli ko'rish*» (bu, albatta, mantiqqa zid) va «*loqaydlik tufayli indamaslik*». Aslida, ifodalanmoqchi bo'lgan fikr – ularning ikkinchisi. Jumladagi so'z tartibi *Ko'rsak ham, loqaydlik tufayli indamaymiz* tarzida tuzilsa, mantiq to'g'ri ifodalanadi.

*Mantiqiylik va matn kompozitsiyasi.* Nutq mantiqiylikning buzilishi matn sintaksisi sathida, ya'ni gaplarning o'zaro mazmuniy-sintaktik bog'lanishidagi kamchiliklar natijasida ham yuzaga keladi. Ma'lumki, matn tarkibidagi gaplar bir-biri bilan bog'langan bo'ladi, shunga ko'ra bog'li nutq tushunchasi mavjud. Matnda bog'lilikning quyidagi uch jihatini farqlash maqsadga muvofiq:

1. Mazmuniy bog'lilik. Bunday bog'lilik abzas va mustaqil gaplarni bog'lovchi leksik-grammatik vositalar (leksik takrorlar, ko'rsatish, 3-shaxsdagi kishilik olmoshlari kabi)ning qo'llanishi orqali namoyon bo'ladi.

2. Mantiqiy bog'lilik. Bunday bog'lilik gaplar, abzaslar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlarning funksional-sintaktik vositalar (*demak, shunday ekan, shunday qilib, bundan tashqari, xullas* kabi kirish so'zlar, *yuqorida, quyida, endi, bundan keyin* kabi so'z va so'z shakllari, *va, hamda, ammo, lekin, biroq* kabi bog'lovchilar va sh. k.) orqali ifodalanishida namoyon bo'ladi.

3. Kompozitsion bog'lilik. Bunday bog'lilik *qayd etmoq lozimki, aniqki, ta'kidlamoq joizki, yuqorida aytib o'tilgani kabi* tarzidagi sintaktik qurilmalar yordamida ifodalanadi.

Yaxlit matnning mantiqiylikini ta'minlashda matnning kompozitsion tuzilishini to'g'ri tashkil etish ham muhimdir. Bayon qilinayotgan fikr, mazmun tarkibida, tabiiyki, muayyan ketma-ketlik, aloqadorlik, bog'liqlik, umuman, tizim mavjud. Mazmundagi ana shu tizim nutqiy ifodada ham o'z aksini topmog'i lozim. Mantiqiy sog'lom matn «biri tog'dan, biri bog'dan» fikrlar «bo'tqa»sidan iborat bo'lmaydi. Shuning uchun matnda fikr rivojini aks ettiradigan aniq kompozitsiya bo'lishi zarur.

Masalan, inshoning kompozitsion tuzilishi uch qismdan iborat bo'ladi, ya'ni: kirish, asosiy qism va xulosa. Kirishda mavzu, uning ahamiyati, o'rganilishi kabi masalalar bayon qilinadi, asosiy qismda aytilmoqchi bo'lgan tegishli mazmun yoritiladi, xulosada esa bayon qilingan fikrlarga yakun yasaladi, «qissadan hissa» qilinadi. Shu tariqa fikr mantiqiy ifodalangan yaxlit matn yuzaga keladi.

Badiiy nutqda mantiqiylikka qo'yiladigan talablar tamoman o'ziga xosdir. Albatta, bu badiiy adabiyotning obrazli tafakkur mahsuli ekanligi bilan aloqadordir.

Mantiqiylikning buzilishi badiiy nutqda o'ziga xos tasvir usuli, obrazli ifoda, qisqasi, badiiy vosita vazifasini bajarishi mumkin. Xilma-xil *alogizmlar* (mantiqsizlik), g'ayriodatiy birikmalar, jonlantirish va boshqa shu kabi qo'llanishlar ijodkorning badiiy mahorati bilan matnning zaruriy unsurlariga aylanadi. Masalan, nobadiiy nutqda *Ko'plar og'izlari bilan ham tinglardilar* shaklidagi gap mantiqsiz hisoblanadi. Chunki tinglash uchun «qurol» og'iz emas, balki quloqdir. Ammo Cho'lponning «Kecha va kunduz» romanidan olingan ushbu parchada bu gap betakror badiiy obraz tasviriga aylangan: *O'tirganlar bir seskanib oldilar.*

– *Qanaqa pul, taqsir? – dedi Matxoliq amin.*

*Hammaning ko'zi uning og'ziga tikilgan edi, undan keyin hamma ko'zlar birdaniga mingboshi tomonga burilib, uning og'ziga osildilar. Ko'plar og'izlari bilan ham tinglardilar.*

Yozuvchi noxush va shum xabarni hayronlik va chorasizlik ichida og'izlar ochilib qotgan ko'yi eshitmoqning badiiy rasmini shu tarzda chizgan.

*Nutqning sofligi.* Nutqning sofligi nutqning adabiy til va jamiyatdagi ma'naviy axloq qoidalariga yot bo'lgan unsurlardan xoliligi bilan belgilanadi. Kishi nutqining sofligi uning ma'naviy-ma'rifiy, lisoniy-madaniy saviyasini namoyon etadigan ko'rsatkichlardan biridir.

Adabiy nutqning sofligiga futur yetkazuvchi unsurlarning asosiylari quyidagilardan iborat: 1) *shevaga xos so'z, ibora, grammatik shakllar, urg'u va talaffuz*; 2) *o'rinsiz qo'llangan chet so'z va so'z birikmalari (varvarizmlar)*; 3) *dag'al, haqorat so'z va iboralar (vulgarizmlar)*; 4) *«ishlamaydigan» yoki parazit so'zlar*; 5) *idoraviy so'z va iboralar (kanselyarizmlar)*.

«Ishlamaydigan» yoki parazit so'zlarning nutq sofligiga zarariga e'tibor qaratamiz. Nutqqa olib kiriladigan har bir so'z va ibora, albatta, «ishlashi», muayyan ma'noni ifodalash uchun xizmat qilishi lozim. Nutq tarkibiga olib kirilgan so'z yoki ibora nutqning mazmuniy qurilishi uchun bir «g'ishtcha» bo'lmasa, u nutq uchun ortiqcha yuk, demakki, nutqning sofligiga xalaqit beradigan keraksiz unsurga aylanadi. Tilshunoslikda parazit so'zlar deb ataladigan bunday birliklar ko'proq og'zaki nutqda kuzatiladi. Aytilmoqchi bo'lgan fikrni yetarli darajada aniq tasavvur qilmaslik, fikrlar o'rtasidagi tizimli munosabat idrokining yetishmasligi, fikrning quyilib kelmasligi natijasida nutq oqimida yuzaga keladigan uzilishni, qanday bo'lmasin, «yopish», tegishli uyg'un ifodani o'ylab topish uchun ketadigan vaqtda nutqning yaxlitligini ta'minlash ehtiyoji bilan bog'liq holatda *eee, hmmm, heyeye* kabi tovush «oqim»lari, *xo'o'o'sh, haligi, anaqa, masalan, demak, shu, innaykeyin, ya'ni, aytaylik, bildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytsam, gap shundaki, qarang* kabi lug'atlarda aniq ma'nosi mavjud so'z va iboralar ayni ma'nosidan begona qilingan tarzda qo'llanadi. Bunday qo'llashlar bora-bora nutq tuzuvchida o'ziga xos odatga aylanib qolishi ham mumkin, masalan, kimdir *haligi*, kimdir *demak*, yana boshqa birov *bildingizmi* so'zini og'zaki nutqida parazit so'z sifatida doimiy ishlatadi. Aytish mumkinki, bunday so'zlar u yoki bu notiqning so'zlashuv uslubining o'ziga xos ko'rsatkichi bo'lib qoladi (hatto bu «ko'rsatkich» shaxsning laqabiga aylanib ketishi ham mumkin, masalan, «*shu-shu*» *domla*, «*xo'sh-xo'sh*» *usta* kabi). Bu, albatta, nutqning sofligini izdan chiqaradi, nutqda ifodalangan

informatiyani qabul qiladigan tinglovchining diqqatini chalg'itadi, nutqning o'z maqsadiga erishishini qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham, ayniqsa, o'qituvchi va asosiy quroli so'z bo'lgan boshqa mutaxassislar parazit so'zlarning o'z nutqlariga kirib qolishidan saqlanishlari lozim. (N. Mahmudov)

O'zimiz yashayotgan hudud shevasiga mansub so'zlar va ularning adabiy tildagi muqobillari ham alohida ahamiyatga ega: *buvak* (Farg'ona shevasida) – *chaqaloq*.

*Nutqning sofligi va badiiy nutq.* Badiiy nutqda nutqning sofligi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. *Badiiy nutqda* qahramonning muayyan hududga mansubligini ta'kidlash maqsadi bilan shevaga oid so'z, ibora, grammatik shakllar, personajlarning milliy mansubligi, madaniy-ma'rifiy saviyasiga urg'u berish uchun o'zbek tiliga kirib o'zlashmagan chet so'z va so'z birikmalari, qahramon ichki dunyosi, tarbiyalanganlik darajasini bo'rttirib ifodalash niyatida dag'al va haqorat so'z, iboralar, shaxsning hissiy holati, nutqiy malakasining yetarli emasligini ko'rsatish uchun *haligi, masalan, innaykeyin, aytaylik, bildingizmi, tushundingizmi, men sizga aytsam, gap shundaki, qarang* kabi o'z ma'nosidan begona qilingan, ya'ni ishlamaydigan so'z va iboralar ishlatilishi mumkin.

Ta'kidlash joizki, rasmiy-idoraviy qoliplashgan so'z va iboralar rasmiy uslubdagina qo'llanadi, ularni boshqa uslublarga olib kirish maqsadga muvofiq emas. Hatto badiiy asarda ham ularning maqsadsiz ishlatilishi o'rinli bo'lmaydi. Ammo personajning madaniy ma'naviy saviyasini kinoyaviy ta'kidlash maqsadida, ya'ni estetik maqsad bilan rasmiy-idoraviy qoliplashgan iboralarning badiiy matnda qo'llanishi kuzatiladi.

*Nutqning boyligi.* Nutq ta'sir va tasvir quvvatini namoyon qilishi uchun u boylik sifatiga ega bo'lishi zarur. Nutqning boy yoki kambag'alligi unda tilning bir-biridan farq qiladigan unsurlari (so'zlar, ma'nolar, intonatsiya, sintaktik tuzilmalar, iboralar va sh.k)dan qay darajada foydalanilganlik bilan belgilanadi. Ayni bir til unsuri nutqda qanchalik kam takrorlangan bo'lsa, bu nutqning boylik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi yoki, aksincha, muayyan til unsurining takrori ko'p bo'lgan nutq kambag'al hisoblanadi va uning ta'siri ham shunga yarasha bo'ladi.

Boy nutq tuzish uchun ifodalarning bir xilligidan qochish, ayni bir tushuncha yoki fikrga farqli-farqli til birliklarini tanlash lozim. Buning uchun esa nutq tuzuvchi yetarli miqdordagi soʻzlar, ularning maʼnolari, soʻz birikmasi va gap modellari zaxiralariga sohib boʻlmogʻi talab etiladi. Bu zaxira qancha boy boʻlsa, notiq oʻz nutqining maqsadiga muvofiq tarzda undan maqbul birliklarni tanlash, xilma-xil ifodalarni ishga solish imkoniyatiga shunchalik koʻproq ega boʻladi.

Nutqning boyligi sifati boshqa uslublarga qaraganda, badiiy uslubda alohida oʻrin tutadi.

*Nutqning boyligini taʼminlovchi vositalar.* Nutqning boyligini taʼminlashda bir qancha til vositalari ishtirok etadi. Ular orasida leksik, semantik, grammatik, intonatsion vositalar alohida oʻrin tutadi.

Boy, shirali nutq tuza bilishi uchun soʻzlovchining, eng avvalo, soʻz zaxirasi boy boʻlmogʻi kerak. Atoqli soʻz sanʼatkorlarida, masalan, ulugʻ Alisher Navoiyda 26 mingdan ortiq, rus shoiri A. S. Pushkinda 21 mingdan ortiq soʻz boyligi mavjudligini mutaxassislar taʼkidlaydilar. Albatta, bunday ulkan soʻz boyligiga ega boʻlish har kimga ham nasib etavermaydi. Ammo oʻz nutqining boy va taʼsirchan boʻlishini istaydigan har bir kishi oʻz lugʻat boyligini kengaytirib borish haqida qaygʻurishi lozim.

Nutqning boyligini taʼminlashda, ayniqsa, maʼnodoshlik katta imkoniyatga ega. Maʼnodoshlik, maʼlumki, faqat soʻzlar doirasidagina emas, balki morfologik va sintaktik birliklar doirasida ham keng tarqalgan.

Matnda soʻz, soʻz birikmasi va gap takroridan qochishning eng qulay yoʻllaridan biri ayni shu maʼnodoshlik asosida bir xil birliklarni almashtirishdir.

*Nutqning joʻyaliligi.* Masalan, yaqin kishisini yoʻqotgan odamning hissiy-ruhiy holati maʼlum. Shunday odamdan koʻngil soʻrash, unga taʼziya bildirish uchun tuziladigan nutqda «oʻlmoq» maʼnosini ifodalash uchun aynan *oʻlmoq* soʻzini tanlash oʻrinli emas, bu soʻz soʻzlovchi va tinglovchi muloqotidagi mantiqiy-axloqiy munosabat ruhiga mos emas. Bu mazmundagi nutqning joʻyaliligini taʼminlash maqsadida mazkur soʻzning *vafot etmoq, boʻlmay qolmoq, oʻtib qolmoq, olamdan*

*o'tmoq, olamdan ko'z yummoq, u dunyoga ketmoq* kabi «yumshoqroq» muqobillari qo'llanadi.

Kichkintoylar nutqida, masalan, *Sog'likda ko'rishaylik! Omon bo'lsak, albatta, ko'rishamiz!* kabi iboralar jo'yalilik sifatidan mahrum bo'ladi, chunki ular bola nutqi uchun mutlaqo xos emas. Bunday jumlar kattalar, keksalar nutqidagina mazkur sifatni ola biladi. Yoki *Bolalarni tarbiyachi o'z oldiga chaqirib, minnatdorchilik bildiradi* gapida *minnatdorchilik bildirmoq* iborasi nojo'ya qo'llangan, shuning uchun bu nutqni jo'yali deb bo'lmaydi. Bog'cha bolasi va tarbiyachi o'rtasidagi yosh va maqom farqi mazkur iborani qo'llashga monelik qiladi, bunday o'rinda jo'yalilik sifati *rag'batlantirmoq* so'zini ishlatishni taqozo etadi.

*Jo'yalilik va uslublar.* Nutq uslublarining har biri uchun xoslangan til vositalari borligini Siz yaxshi bilasiz. Bir uslubga xoslangan so'z, ibora, sintaktik qurilma yoki shu kabi birlikning boshqasiga o'tkazilishi nojoiz, o'rinsiz hisoblanadi. Bunday holatlarda ham nutqning jo'yaliligi buzilishi mumkin.

Bu o'rinda aytish kerakki, jo'yalilik sifatini o'rganishda nutqning yozma va og'zaki shakllarini farqlash lozim, chunki bu nutq shakllarida jo'yalilik o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, yozma va og'zaki nutqning voqe bo'lish sharoitlari bir xil emas, shunga ko'ra bu ikki nutq shaklining o'ziga xoslangan birliklari, grammatik shakllari, sintaktik qoliplari bor. Bu holatni hisobga olmaslik natijasida ham nutqning jo'yaliligiga futur yetadi. Albatta, badiiy nutqda jo'yalilik o'ziga xos namoyon bo'ladi.

*Nutqning ifodaliligi.* Izn bermoq – ruxsat bermoq; raqam qilmoq – qayd qilmoq.

Nutq tinglovchi yoki o'quvchiga jiddiy ta'sir qilishi uchun u ham shaklan, ham mazmunan diqqatni o'ziga jalb qila oladigan bo'lishi lozim. Ifodalilik sifatiga sohib bo'lgan nutq bunday vazifani bajarishi mumkin. Bu kommunikativ sifat til vositalarini ifoda maqsadiga to'la muvofiq tarzda tanlash asosida yuzaga keladi.

Nutqning turli uslublari bu kommunikativ sifatga turli darajada ehtiyoj sezadi. Masalan, rasmiy ish qog'ozlarida ifodalilikka nisbatan kamroq e'tibor qilinsa, ilmiy uslubda o'rni bilan bir qadar bu sifat kerak bo'ladi. Ifodalilik, ayniqsa, badiiy nutqning zaruriy sifatlaridandir.

Tilda ifodalilikni ta'minlashga xizmat qiladigan imkoniyatlar juda ko'p va xilma-xil. Bunday imkoniyat tilning barcha birliklarida mavjud. Tilning tovush qurilishi, so'z xazinasini, morfologik shakllari, sintaktik birliklari, intonatsiya kabilarning har biri nutq ifodaliligining bitmas-tuganmas manbalaridir. Nutq tuzuvchi bulardan yetarli xabardor bo'lsa, nutqning ifodalilik sifatini ta'minlashga qiynalmaydi.

*Ifodalilik va ibora.* Tilning so'z xazinasini nutqiy ifodalilikning o'ziga xos asosiy manbalaridan biridir. Ammo tilning lug'at boyligidagi so'zlar bilan frazeologik iboralar solishtirilganda, iboralarning ifodalilik nuqtayi nazaridan imkoniyati sezilarli darajada katta ekanligi yaqqol ko'rinadi.

Frazeologik iboralarning deyarli barchasi ekspressivlikka, obrazlilikka, alohida ifodalilikka egadir. Masalan, *kutmagan so'zi yetti uxlab tushiga kirmagan* iborasi bilan ma'nodosh, ammo ibora ifodalilik jihatidan so'zdan ancha ustun. Yana qiyoslang: *o'taketgan – uchiga chiqqan; beqiyos (juda) – yer bilan osmoncha; albatta – turgan gap; hech qachon – ikki dunyoda (ham); yashirin – yeng ichida.* Frazeologik iboralar o'z ma'nodoshlari bo'lmish so'zlarga nisbatan, birinchidan, ma'noni kuchli daraja bilan ifodalasa, ikkinchidan, ularda obrazlilik yorqin bir tarzda aks etadi.

Frazeologik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir. Shuning uchun ham ular nutqning ifodaliligini ta'minlashda betakror vositalardir. So'z san'atining ustalari tildagi bu vositalardan unumli foydalanadilar.

Iboralarning asosiy qo'llanish o'rni, yashash joyi, asosan, badiiy uslubdir. Ilmiy va rasmiy uslublarda esa iboralar deyarli qo'llanmaydi.

*Ignaday narsani tuyaday qilmoq – bo'rttirmoq; igna ustida o'tirmoq – bezovta bo'lmoq, qo'y og'zidan cho'p olmagan – mo'min, yuvosh; tegganga tegib, tegmaganga kesak otadigan – tegajoq, xira juftliklaridagi iboralarning ifodalilik darajasi o'ziga xos.*

*Ifodalilik va ko'chimlar.* So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash ham nutq ifodaliligini ta'minlash uchun tuganmas manbadir. Nutqda deyarli barcha asosiy holatlarda ko'chma ma'no emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik kasb etadi.

Nutqda so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatishning xilma-xil ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular ko'chimlar nomi bilan umumlashtiriladi. Ko'chimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, ya'ni ikki narsa yoki tushuncha o'rtasidagi muayyan munosabat (o'xshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga ko'chiriladi. Ko'chimlarning *metafora, metonimiya, sinekdoxa* kabi bir necha turlari farqlanadi.

Metafora narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi o'xshashlik asosida nom (so'z)ning ko'chishidir. Masalan, *qozonning qulog'i* birikmasidagi *quloq* so'zining ma'nosi metaforik ma'no, chunki u odamning qulog'iga o'xshashligi asosida yuzaga kelgan. Lekin ayni so'zning bu ma'nosi tilda doimiy metaforaga aylangan, ya'ni turg'unlashib, mazkur tushunchaning nomiga aylangan.

Metafora qanchalik yangi, tutilmagan bo'lsa, shunchalik ifodali bo'ladi. Mohir so'z ustalari o'z asarlarida so'zlarni metaforik ma'noda qo'llash orqali ifodali, obrazli nutqning go'zal namunalarini yaratadilar. Quyidagi misolda buni ko'rish mumkin: *Manglayi tirishar zinapoyaning, Panjara kuylaydi misoli chiltor, Terlab ketganini ko'rsang oynaning... Hamma narsa seni kutar intizor.* (Iqbol Mirzo) Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ko'chma – metaforik ma'noda qo'llangan.

Metonimiya narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi muayyan aloqadorlik asosida birining nomi bilan ikkinchisining atalishidir. Masalan, *Dasturxonga qarang* jumlasidagi *dasturxon* so'zi metonimik qo'llangan. Yozuvchining mahorati bilan badiiy nutqdagi metonimiya tufayli yuzaga kelgan ifodalilikka e'tibor bering: *Bu yerga termulib parishon dunyo. To'g'rilab oladi qo'lda soatin.* (A. Oripov)

Sinekdoxa narsa yoki tushunchalar o'rtasidagi butun-bo'lak munosabati asosida birining nomini ikkinchisiga ko'chirishdir. Masalan, *Bu kishi tirnoqqa zor* jumlasidagi *tirnoq* so'zi sinekdoxa yo'li bilan «*farzand*» ma'nosida qo'llangan.

*Ifodalilik va kinoya.* Nutqning ifodaliligi, ta'sirchanligini oshirishda kinoya ham alohida o'rin tutadi. Bunda so'z yoki ibora o'z ma'nosiga tamomila qarama-qarshi bo'lgan ko'chma ma'noda ishlatiladi.

Kinoya so'zlovchining tasvirlanayotgan narsa yoki tushunchaga kesatiqli, pichingli, istehzoli, umuman, subyektiv kulgi aralash munosabatini ifodalash vositalaridan bo'lganligi uchun ham so'z yoki iboraning to'g'ri ma'nosiga zid, ya'ni inkor, emotsional-ekspressiv bo'yoqli ma'no voqelanadi.

*Ifodalilik va o'xshatishlar.* O'xshatishlar nutqda katta badiiy uslubiy imkoniyatlarga ega bo'lganligi uchun nutqning ifodaliligini ta'minlaydigan alohida vosita vazifasini bajaradi.

O'xshatishlar to'rt unsur dan tarkib topadi, ya'ni: 1) o'xshatiladigan narsa (yoki subyekt); 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi. Masalan, *Yigit musichadek beozor ekan* o'xshatishida *yigit* o'xshatiladigan narsa, *musicha* o'xshatish etaloni, *beozor* o'xshatish asosi, *-dek* qo'shimchasi esa o'xshatishning shakliy ko'rsatkichidir.

*Nutq madaniyati va nutq texnikasi.* Talab darajasida shakllangan nutq texnikasi kishi umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim qismi hisoblanadi. Nutq texnikasi deganda jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to'g'ri voqelantirish ko'nikma va malakalarining jami tushuniladi.

Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish, tovush va tovush qo'shilmalarini aniq talaffuz qilish – aniq diksiya, nutq oqimining mazmun ifodasiga uyg'un tarzda tez yoki sekinligi kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Nutq texnikasini yetarli darajada egallashda umumiy tarzda bo'lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur.

Fonatsiya jarayonida, ya'ni nutqni hosil qilish paytida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi.

Albatta, ovozning sifati ham nutq texnikasidagi muhim jihatlardan biridir. Masalan, xirqiroq, chiyildoq, shang'iroq kabi ovozlarning yoqimli bo'lolmasligi, ya'ni tinglovchi qulog'ini qiynashi tayin. Bunday yoqimsiz ovozdan «libos kiygan» fikrning kattagina qismi nutq idrokining o'ta sezgir va nozik darvozasi bo'lmish quloqdan o'tolmay tashqarida qoladi. Bu, albatta, nutq egasi ko'zlagan maqsad – muayyan bir axborotni tinglovchiga tugal va ta'sirli tarzda yetkazish uchun qulay sharoit yaratmaydi, balki unga monelik qiladi. Bu oddiy haqiqatni aslo yoddan chiqarmaslik lozim. Ayniqsa, asosiy quroli nutq bo'lgan har qanday odam uchun sifatli ovoz hal qiluvchi ahamiyatga molikdir.

O'zbek tilining izohli lug'atini tuzish leksikologiya va leksikografiya sohalarida ilmiy-tadqiqot ishlarining yetarli emasligi sababli lug'atni tuzish jarayonida bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Chunonchi so'z turkumlarining berilishi, qo'shma so'zlar va ularning imlosi masalasi, omonimiya va polisemiyaning farqlash masalasi, polisemantik so'zlarda ma'noni chegaralash va izohlash masalasi, frazeologik birliklar chegarasi va ularning leksikografik jihatdan ishlanishi va boshqa masalalar lug'atchilar uchun, shubhasiz, qator qiyinchiliklar tug'dirdi. Shu tufayli o'zbek tili izohli lug'atini tuzish bilan birga, uning (lug'at tuzishning) nazariy tomonlari haqida ham ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi<sup>1</sup>. Bu ilmiy-tadqiqot ishlari va lug'atlar shubhasiz, 5 tomli izohli lug'at uchun amaliy qo'llanma vazifasini o'tadi.

*Nutq texnikasida urg'u va to'xtam.* Olmá (ot) – ólma (fe'l); akadémik (ot) – akademík (sifat). Nutqning madaniyligini ta'minlashda undagi ohang ham alohida o'rin tutadi. Nutqda yaxlit ohangning shakllanishida urg'u, to'xtam (pauza), mazmuniy-hissiy intonatsiya kabi unsurlar ishtirok etadi. Og'zaki madaniy nutq tuzayotgan kishi ana shu unsurlarni aniq va to'g'ri namoyon qilishi zarur. Urg'u ikki xil bo'ladi, ya'ni so'z urg'usi va gap urg'usi. Gap tarkibidagi mantiqan muhim bo'lak gap urg'usi bilan ta'kidlanadi.

Nutq oqimidagi noto'g'ri yoki o'rinsiz to'xtam (pauza) hatto fikrning yanglish anglanishiga ham olib kelishi mumkin. Masalan, *Hovliga ikki bolali ayol kirib keldi*

---

<sup>1</sup> Hojiyev A. O'zbek tili izohli lug'atida fe'llarning berilishi // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. 1962. 5-son.

gapi agar *Hovliga ikki // bolali ayol kirib keldi* tarzidagi to'xtam bilan aytilsa, «Hovliga bolasi bor ikkita ayol kirib keldi» mazmuni anglashiladi, *Hovliga ikki bolali // ayol kirib keldi* tarzidagi to'xtam bilan aytilganda esa «Hovliga ikkita bolasi bor bitta ayol kirib keldi» mazmuni ifodalanadi. Intonatsiya gapning mazmuniy-hissiy yo'nalishini ko'rsatadi.

## **2.2. Ta'lim jarayonida madaniy nutqni shakllantirish usullari**

Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tilining o'rni favquloda muhimdir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zgidir. Hadisi shariflarda “Kishining zeb-u ziynati, go'zalligi uning tilidadir” deyiladi. Qadim-qadim zamonlardan beri har bir millat, har bir qavm o'z tiliga buyuk hurmat bilan qaraydi. Bu tilning sohir ohanglari og'ushida erimoqdan adoqsiz huzur tuyadi. Bu tilga timsol topmaslikdan taskin topadi. Bu nodir boylikni dunyolarga bermaslikka hozir turadi. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi.

Millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir. Bosh maqsadi Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi bo'lmish milliy g'oyamizning kurashchanligini ta'minlashda mukammal ma'naviyat va ma'rifat hal qiluvchi omil bo'lib, ona tiliga muntazam muhabbat, davlat tiliga barqaror ehtirom ana shu omilni shakllantiradi, unga kuch beradi, ko'lam baxsh etadi. Shuning uchun ham milliy g'oya targ'ibida “millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat” tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Mamlakatimizda ma'naviyat jabhasida olib borilayotgan benihoya keng qamrovli islohotlarda til muammolari, xususan, ona tiliga, davlat tiliga e'tibor masalalariga alohida diqqat qilinayotganligi bejiz emas. Respublikamizning “Davlat tili haqida”gi, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunlari, “Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur” va boshqa juda ko'plab hujjatlarda bu yo'nalishdagi ishlarning asosiy jihatlari ko'rsatib berilgan. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov 1997- yilning iyunida

Toshkentda bo'lib o'tgan "Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturni tuzish" komissiyasining yig'ilishida har bir fuqaro uchun "o'z davlat tilini bilish, uni o'rganish yuksak ma'naviyat, Vatani va xalqiga sadoqat belgisi" ekanligini asosli ravishda ta'kidlaganlar.

Jamiyatimizning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining sadoqatli sohibi bo'lmog'i lozim. Ona tiliga chinakam sohib bo'lmoqning bosh sharti esa uning tunganmas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya'ni fikrni mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmoqdan iborat nutqiy madaniyat malakalarini shakllantirmoqdir. Zotan, nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadga o'ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.

XI asr Sharqining ulkan pandnomachisi Kaykovus "Qobusnoma"da shunday bir ibratli hikoyatni keltiradi: Bir kecha xalifa Xorun ar-Rashid tush ko'radi, tushida uning barcha tishlari to'kilib ketgan emish. Xalifa tongda muabbir (tushni ta'bir qiluvchi)dan tushining ma'nosini so'raydi. Muabbir shunday deydi: "Ey amiral mo'minin, sening oldingda barcha yaqinlaring, qarindosh-urug'laring o'ladi. Sendan boshqa hech kim qolmaydi". Bu so'zni eshitgan Horun ar-Rashid: "Mening yuzimga bunday qayg'uli so'zni aytding. Mening barcha qarindoshlarim o'lsa, so'ngra men qanday ishga yarayman-u qanday yashayman?" – deydi darg'azab bo'lib va uni yuz tayoq bilan jazolashni buyuradi. Keyin boshqa muabbirni chaqirib, undan tushining ta'birini so'raydi. Muabbir bunday deydi: "Ey amiralmo'minin, sening umring barcha qarindoshlaring umridan uzoq bo'ladi". Shunda Horun ar-Rashid deydi: "Barcha aqlning yo'li birdir va ikkovining ta'birining negizi bir yerga borib taqaladi, ammo bu ibora bilan u iboraning orasida farq bag'oyat ko'pdir". So'ng muabbirga yuz tillo berishni buyuradi<sup>1</sup>. Demakki, tilda bir fikrni bir qancha shakl-u shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud, aynan qaysi shaklni tanlash, muayyan fikr va muloqot vaziyati uchun eng uyg'un ifodani topa bilish nutq egasining tilga sohiblik darajasi, mahorat-u malakasi, ma'rifat-u ma'naviyatiga bog'liq. Muloqot vaziyatini yetarlicha baholamasdan turib, fikr ifodasi uchun tanlangan lisoniy libos, har qancha

---

<sup>1</sup> Qobusnoma. Toshkent: Meros, 1992, 33 - 34-betlar.

to'g'ri va go'zal bo'lmasin, maqsad nishoniga yetib bora olmaydi. Bunday ifoda hatto boshga balo keltirishi ham mumkin.

Go'zal va nafis nutq sezgisi hamda unga azaliy ixlos-u e'tiqod an'anasining ibtidosi, ayniqsa, ko'hna Sharqda juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Donishmand Sharq bag'rida (Frot va Dajla daryolari oralig'ida yashagan qadimgi shumerlarda) bundan besh ming yillar burun barpo bo'lgan eng "keksa" muassasalardan bo'lmish ilk maktablarning bosh vazifalaridan biri ham bolani to'g'ri, aniq gapirish va yozishga o'rgatishdan iborat bo'lganligi, ayni vazifaning bizning kunlarimizga qadar ham o'sha mohiyatini yo'qotmay kelayotganligi har qanday jamiyat hayotida til va nutq nufuzining nechog'li muhtasham o'rin tutishining shahodatidir. Shuni ham ta'kidlamoq lozimki, sivilizatsiya dunyoning turli mintaqalarida turlicha yuz berib, muayyan hududlar aholisi dunyoqarashi va turmush tarziga chuqur o'rnashgan.

Sivilizatsiya, jumladan, Yunonistonda nafosat, Hindistonda din, Ovrupoda moddiy-texnika taraqqiyoti, Turonda esa axloq shaklida vujudga kelgan. Qadimiy Turonda axloqqa katta e'tibor bilan qarashgan. Yuksak insoniy fazilat, insonni millatidan qat'i nazar, barcha mavjudotlarning sarvari sifatida qadrlash, ma'naviy kamolot va yetuklik, adolat, insof, diyonat va imon kabi xususiyatlar tiriklikning bosh mazmuni sifatida tushunilgan.

Bizning yurtimizda axloq serqamrov, mag'zi to'q va qiyosi yo'q tushuncha sifatida azaldan jamiyatdagi muvozanat va osoyishtalikning asosiy omili bo'lib kelgan. Ma'nili va bejirim gapira bilish, nutq zanjiridagi maqbul va nomaqbul halqalarni ilg'ay olish, so'zning orqa-o'ngini, o'z munosib o'rnini farqlay bilish, nutqiy fahm-u farosat, nozik nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining, ma'naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan. Hatto aytish mumkinki, chin so'z sezgisi inson komilligini tayin etuvchi fazilatlarining boshida turgan. Aziziddin Nasafiy "Kamil inson" nomli kitobida yozadi: "Bilgilki, kamil inson quyidagi to'rt narsaga mukammal shaklda ega bo'lgan insondir. Ularning birinchisi yaxshi so'z, ikkinchisi – ezgu faoliyat, uchinchisi – go'zal axloq, to'rtinchisi – ilm".

“Qobusnoma”da Kaykovus farzandiga shunday o’git beradi: “Ey farzand, so’zning yuzin va orqasin bilg’il va ularga rioya qilg’il, har na so’z desang, yuzi bila degil, to suxango’y bo’lg’aysan. Agar so’z aytib, so’zning nechuk ekanin bilmasang, qushga o’xsharsanki, unga to’ti derlar, ul doim so’zlar, ammo so’zning ma’nosin bilmas. Suxango’y shul kishi bo’lg’ayki, ul har so’zni desa, xalqqa ma’qul bo’lg’ay va xalq ham har so’z desa, unga ma’qul bo’lg’ay. Bunday kishilar oqillar qatoriga kimg’ay, yo’q ersa, ul inson suratida mavjud bo’lg’on bir hayvondur”.

Odob juda keng va qamrovli tushuncha bo’lib, u nutqni to’g’ri va o’rnida qo’llash odobini ham o’z ichiga oladi. Buyuk bobokalonimiz Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” kitobida “Odobning boshi tildir” degan maqol qayd qilingan. Ulug’ alloma Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida “*til ardami*” (nutq odobi) haqida bir qancha go’zal hikmatlar mavjud:

*1. So’zingga ehtiyot bo’l, boshing ketmasin,*

*Tilingga ehtiyot bo’l, tishing sinmasin.*

*2. Bilib so’zlasa, so’z donolik sanaladi,*

*Nodonning so’zi o’z boshini yeydi.*

*3. Aql ko’rki so’zdir va til ko’rki – so’z,*

*Kishi ko’rki yuzdir, bu yuz ko’rki – ko’z.*

So’z mulkining sultoni Alisher Navoiy so’zning muloqotdagi o’rnini bilishni inson axloqining asoslaridan hisoblagan, aniq va lo’nda gapirishni fazilat deb bilgan:

*Bir deganni ikki demak xush emas,*

*So’z chu takror topti, dilcash emas.*

Kinoyaviy ma’noning voqelanishida nutq vaziyati, kontekst va intonatsiya ham alohida rol o’ynaydi. Masalan, *Bugun jug’rofiya o’qituvchisi darsga kelmadi. Xomtok qilaman deb so’ridan yiqilib, oyog’ini sindiribdi. Ajoyib «xushxabar»dan keyin bir zunda sinf bo’shadi-qoldi (Said Ahmad)* parchasida *xushxabar* so’zi «shumxabar» tarzidagi kinoyaviy ma’noda qo’llangan.

Kinoyada so’z yoki iboraning tildagi ma’nosi bilan nutqda reallashgan ko’chma ma’nosi o’rtasidagi zidlik kuchli ta’kid oladi va shunga ko’ra birdaniga diqqatni jalb etadi.

Kinoyaviy qo'llangan so'z yoki ibora og'zaki nutqda o'ziga xos, farqli intonatsiya bilan aytilsa, yozuvda ko'pincha qo'shtirnoq bilan ajratiladi.

N.Mahmudov va Y.Odilovning «O'zbek tili enantiosemik so'zlarining izohli lug'ati»da tavsiflangan bir so'zda namoyon bo'lgan zid ma'nolarga diqqat qilamiz.

DONO 1 Aqlli, har narsani biladigan: Donolar dunyoni demish ko'pkari, Boqing, O'zbekiston dadil ot soldi! (*A. Oripov*) 2 Aqlsiz, ko'p narsani bilmaydigan: Ammo oyog'ining ostidan narini ko'rmaydigan, vaholanki, hayotdan faqat nuqson izlaydigan ayrim «dono» vaysaqilar, afsuski, bor. (*O'.Usmonov*)

KAMTARIN 1 Juda kamtar, xokisor: Kamtarin bo'l, hatto bir qadam O'tma g'urur ostonasidan. Piyolani inson shuning uchun O'par doim peshonasidan. (*E.Vohidov*) 2 Juda maqtanchoq: Agar Kesakpolvonni nazarda tutib, shunday desangiz, adashasiz. Chunki u «kamtarin» banda qudrat bobida o'zidan oldin faqat Asadbekni ko'radi. (*Tohir Malik*)

XUSHBO'YLIK 1 Bir kun burun shovullab yog'gan yomg'ir va tong tarovati bois olam bag'oyat chiroyli hamda tiniq, havo esa musaffo va xushbo'y edi. Bu xushbo'ylikni rasadxona ortidagi tog'dan yelayotgan mayin shabada olib kelardi. (*Nabi Jaloliddin*) 2 Qo'lansa hidlilik, badbo'ylik: Bulardan bir qadoq sovun olmoq uchun yo dimog'ni ro'mol bilan bog'lash kerak, yoki burunni yeng ichiga olib turish kerak. Dunyodagi hidlar ichida sovun bozorining hididay «xushbo'ylik» jahonda bo'lmasa kerak. (*G'afur G'ulom*)

SHAROFAT 1 Xosiyat, yaxshilik: Xolisan aytganda, shularning sharofati bilan qishda loyi, yozda tuprog'i ko'pchib yotadigan qo'rg'on ko'chasi bir tekis qilib asfaltlandi, gaz quvuri keldi, kechalari chiroq o'chib qolmaydigan bo'ldi. (*Erkin A'zam*) 2 Kasofat, yomonlik, kasr: Sharif Vallomatning «sharofati» bilan ishdan ketib, tish kavagiga bekitganini ham yeb bitirib, hattoki bir-ikkita gilamlarini ham sotib, shipshiydam uyda xotini-yu uchta bolasi bilan g'arib bo'lib o'tirganini bilardi. (*Murod Muhammad Do'st*)

HUSNIXAT 1 Chiroyli yozuv: U kishi Ufa shahrida ta'lim olgan muallimani yollab onamni o'qitgan ekanlar. Men oyimning pinjiga suqilib o'tirib, husnixat mashq qilardim. (*Said Ahmad*) 2 Xunuk yozuv, badxat: Professor Mannopov

vrachlarga xos «husnixat» bilan bloknotiga lotin alifbosida yozib qo'ydi. (*Said Ahmad*)

O'xshatishlarning ikki turi farqlanadi: 1) erkin o'xshatishlar; 2) turg'un (doimiy) o'xshatishlar.

Badiiy-estetik qiymat, lingvopoetik salmoq nuqtayi nazaridan erkin o'xshatishlar yozuvchining mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma-xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan o'quvchini rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat, xususiyat, predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi. Masalan, *Miryoqub ikki kishining pichirlashib gaplashganini eshitdi, yuragi objuvoz likopiday ura boshladi (Cho'lpon)* gapidagi o'xshatish – yozuvchining o'z ijodi mahsuli. Mana bu o'xshatishlar ham erkin badiiy o'xshatishlardir: *Maydalab o'rilgan sochlardek egatlarga taralgan suvlar – nay ko'ksidan oqayotgan ohanglar kabi sirli-sirli jildiraydilar (Ismoil To'lak)*.

Turg'un o'xshatishlarda o'xshatish etalonida ifodalangan obraz barqarorlashgan bo'ladi, bunday o'xshatishlar, garchi muayyan shaxs yoki ijodkor tomonidan qo'llangan bo'lsa-da, vaqtlar o'tishi bilan til jamoasida urfga kirib, doimiy ifodalar sifatida turg'unlashgan, umumxalq tilidan joy olib ulgurgan bo'ladi. Bunday o'xshatishlar xuddi tildagi tayyor frazeologik birliklar kabi nutqqa olib kiriladi. Masalan, *Uning bu xislati ham hammaga otning qashqasiday ma'lum (Cho'lpon); Bolalari qo'rqqanlaridan baqadek qotib qolishdi (M. Nizanov)* gaplaridagi o'xshatishlar turg'un o'xshatishlardir.

Turg'un o'xshatishlar ham nutqning ifodaliligini ta'minlashda alohida o'rin tutadi.

N.Mahmudov va D.Xudoyberganovanning «O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati»dan olingan *o'q* so'zi ishtirokidagi turg'un o'xshatishlarning ma'nolariga diqqat qilamiz.

## O'qday (kabi, singari)

1. *To'g'ri, adil.* Asosan, egri bo'lmagan ko'cha, yo'l va boshqa narsalar haqida: Hammasini yer yuzidan sidirib tashlab, o'rniga bog'-rog'ga ko'milgan, ko'chalari **o'qday to'g'ri**, oppoq, ko'rkam qishloq barpo qildi. (*O. Yoqubov, «Diyonat»*)

2. *To'g'ri.* Rost, adolatli so'z, shuningdek, g'irromlikni bilmaydigan odam haqida: O'qdek *to'g'ri* bo'lmoqlik, kibr-u havoga yo'l ochmasligi lozim... – negadir o'ylanib qoldi sohibqiron. (*M. Ali, «Ulug' saltanat»*)

3. *Botmoq, tegmoq, teshib o'tmoq, sanchilmoq, qadalmoq.* Odamga qattiq ruhiy azob bermoq. Asosan, gap-so'z, o'y-xayol haqida: Uning so'zlari garchi o'q kabi *botayotgan* bo'lsa-da, Elchin uchun yangilik emasdi. (*T. Malik, «Shaytanat»*) U ketdi, ketdi-yu endi shum o'ylar *Sanchilaveradi* qalbga misli o'q. (*A. O'ktam, «U ketdi...»*)

4. *Uchmoq.* Juda ham tez harakatlanmoq; zarb, shiddat bilan chiqib ketmoq. Vatan, aylanarman bir keskir toshga, Qoshingga o'q kabi *uchib* borarman. (*R. Parfi, «Ona Turkiston»*) Bizdan uzr so'rab, «patpat»iga o'tirdi-yu o'qday *uchirib ketdi*. (*M. M. Do'st, «Lolazor»*)

5. *Otilmoq.* Keskin, shiddat bilan biror tomonga tashlanmoq; odam, jonivor va boshqa harakatlanuvchi narsalar haqida: Qamchi yeb o'rganmagan uchqur bedov oldinga o'qday *otilib*, egasini balo-qazodan olib chiqib ketdi. (*P. Qodirov «Yulduzli tunlar»*)

6. *Otilib chiqmoq.* Asosan, qattiq hayajon, hissiy taranglik bilan aytilgan gap-so'z, xitob va shu kabilar haqida: Ko'krigidan shu so'zlar o'qday *otilib chiqdi*: «Otamning qamalishi emas, sizning qilmishingiz meni o'rtoqlarim oldida yerga kirgizib yubordi». (*A. Qahhor, «Zilzila»*)

7. *Kirmoq, sanchilmoq, qadalmoq, urilmoq.* Qattiq, dag'al, quloqqa ozor beradigan darajada eshitaladigan ovoz, gap-so'z haqida: Uxlab qoldingizmi, nima balo! – rejissorning tajang qichqirig'i Zuhraning quloqlariga o'qday *kirdi*. (*O'. Hoshimov, «Nur borki, soya bor»*)

8. *Qadamoq, tikmoq.* Qattiq tikilib qaramoq. Asosan, ko'z haqida: Ertalab haykalning ochilishidan qaytayotib, mashina oynasidan o'ziga o'qdek *qadalib turgan* bir juft ko'zni ko'rib qoldi. (*E. A'zam, «Shoirning to'yi»*)

Nutqning boylik darajasini pasaytiruvchi leksik, semantik, morfologik, sintaktik va intonatsion takrorlarni badiiy nutqda alohida badiiy maqsad bilan atayin qo'llanadigan takrorlardan farqlash lozim. Ko'proq badiiy va publitsistik nutqda muayyan tushuncha yoki mazmuni alohida ta'kidlash, ohangdorlik kabi niyatlar bilan bog'lovchi, so'z, so'z birikmasi, gaplar takrorlanadi. Masalan, quyidagi she'riy parchada buni ko'rish mumkin:

*Yurt bu kun* karvonlar boshida nordir,

*Yurt bu kun* Sharq ichra tengsiz bir diyor.

*Yurt bu kun* ohuday xo'p ishvakordir,

Sir kabi seravjdir, Pomirday poydor. (*A. Oripov*)

Xullas, ona tili fanining asosiy maqsadi to'g'ri va ravon so'zlaydigan, bexato yozadigan savodxon shaxsni yetishtirish ekan, umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim ona tili darsliklarida madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlarga asosiy e'tibor qaratish, imkon qadar yoshlarni tilni amaliy o'rganish hodisalariga to'g'ri yo'naltirish lozim bo'ladi.

## XULOSA

Ona tili ta'limining dolzarb muammolari sifatida o'quvchilarda madaniy nutq va uni shakllantiruvchi asosiy sifatlarni shakllantirish, ularni ta'lim jarayonida "zeriktiruvchi" grammatik qoidalardan uzoqlashtirish, "sof nazariy qoidalar" o'qitilishidan cheklanib, til birliklarini amaliyotda qo'llash usullarini ishlab chiqish, darsliklardagi mashqlarni lug'atlar bilan muntazam ishlash ko'nikmalariga muvofiqlashtirish, og'zaki va yozma nutqni shakllantirishda uzviylikka erishish, darsliklardagi qisqagina nazariy ma'lumotlarni keng amaliy ifodalarda qo'llay olish tamoyillarini ko'rsatish mumkin.

Ona tili ta'limi muammolarining yechimi sifatida nutqning madaniyligini ta'minlaydigan *to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik* kabi kommunikativ sifatlarga erishish lozim. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy nutq hisoblanadi. Mazkur sifatlarga bog'liq holatda nutq madaniyatining ikki bosqichi farqlandi. Nutq madaniyatining birinchi bosqichi nutqda to'g'rilik sifatining mavjudligi bo'lsa, nutqda qolgan boshqa sifatlarni ham mujassamlashtirish nutq madaniyatining ikkinchi oliy bosqichi sanaladi.

Nutq madaniyati va unga qo'yiladigan talablar o'ziga xos bo'lib, *savodxonlik, nutq madaniyati, og'zaki va yozma nutq mahorati, notiqlik* kabilarni o'z ichiga oladi.

Ona tili ta'limida madaniy nutqni shakllantiruvchi muhim omillar sifatida madaniy nutqning asosiy kommunikativ sifatlari va ta'lim jarayonida madaniy nutqni shakllantirish usullarni ko'rsatish mumkin.

Nutqning to'g'riligi boshqa barcha kommunikativ sifatlarning poydevori vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham nutqning to'g'riligi nutq madaniyatining birinchi bosqichi bo'lib, maktab ona tili ta'limining asosiy maqsadi ham o'quvchilarda aynan to'g'ri nutq tuzish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan.

To'g'rilik sifati nutq tarkibi va qurilishining amaldagi adabiy til me'yorlariga to'la mosligi asosida yuzaga keladi. Adabiy til me'yorlariga amal qilinmasdan tuzilgan nutq to'g'ri nutq bo'la olmaydi.

O'zbek adabiy tilida leksik (so'z qo'llash), talaffuz, so'z yasalishi, morfologik, sintaktik, uslubiy me'yorlar farqlanar ekan, adabiy til me'yorlarining odatdagi nutqda buzilishi nutqning noto'g'ri tuzilishiga olib keladi. Ammo badiiy adabiyotda muayyan estetik maqsad bilan adabiy til me'yorlaridan chekinish holatlari ham kuzatiladi va ular badiiylik uchun xizmat qiladi.

Adabiy tilning yozma shaklida to'g'rilik sifatining ta'minlanishi uchun yana ikki turli me'yoriga – imlo (orfografik) va tinish belgilari (punktuatsion) me'yorlariga amal qilish lozim.

Imlo qoidalari savodxonlikni ta'minlashning asosi hisoblanadi. Yozuv madaniyatini shakllantirishda tinish belgilarini qo'llash qoidalarining alohida ahamiyati bor.

Nutqning madaniyligini ta'sir quvvatini ta'min etadigan to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, boylik, soflik, jo'yalilik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi.

Tildan erkin, maqsadga va nutqiy vaziyatga muvofiq tarzda foydalana olish, nutqda kommunikativ sifatlarning barchasini mujassamlashtira bilishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilarga mos adabiyotlarning o'rni muhimdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. 56 bet.
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga javoblar // Karimov. I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. -T.: O'zbekiston, 2000. 509 bet.

### II. Asosiy adabiyotlar

3. Begmatov. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. T.: Fan. 1985. 220 bet.
4. Begmatov E. O'zbek nutqi madaniyati asoslari. –T., O'qituvchi. 1991. 124 bet.
5. Hojiyev A. O'zbek tilshunosligi atamalarining izohli lug'ati. - T.: O'qituvchi, 2001 - 120 b.
6. Hojiyev A. O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. – T.: Fan, 2009. 180 bet.
7. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni): Filol. fan. nomz. ... dis. avtoref. – T., 1999. -B. 24.
8. Jamolxonov N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 2005. 180 bet.
9. Jumaxo'jayev A. Istiqlol va ona tilimiz. - T.: Sharq, -1998. – 158 bet.
10. Kaykovus. Qobusnoma. To'ldirilgan 2-nashri. Toshkent: "Istiqlol", 1994. 173 b.
11. Mahmudov N. Ma'rifat manzillari. Toshkent: Ma'naviyat, 1999. 64 b.
12. Mahmudov N. Til. - T.: Yozuvchi, 1998. - 40 b.
13. Mahmudov N., Mirtojiyev M. Til va madaniyat. –T: O'zbekiston, 1992. - 110 b.
14. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati –T.: O'qituvchi, 2009. 188

bet.

15. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. 9-sinf uchun darslik. -T.: Tasvir, 2010. - 128 b.

16. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va b. Ona tili. 5-sinf uchun darslik. -T.: Ma'naviyat, 2011. - 224 b.

17. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va b. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. -T.: Tasvir, 2013. - 208 b.

18. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. va b. Ona tili. 7-sinf uchun darslik. -T.: Ma'naviyat, 2013. - 128 b.

19. Mahmudov N., Sobirov A., Odilov Y., Ziyodullayeva G. Ona tili. 10-sinf uchun darslik. -T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. - 112 b.

20. Mirtojiyev M. O'zbek tilida ellipsis natijasida sinekdoxaning sodir bo'lishi // O'zbek tilshunosligi masalalari. 475-chiqishi. -T., 1975. -B. 160.

21. Mirtojiyev M. O'zbek tilida polisemiya. -T.: Fan, 1975. 140 b.

22. Misliddinova M. Talaffuzdagi tejamlilik // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 2005. -№5. -B. 116.

23. Navoiy Alisher. Asarlar. 15 tomlik. 14-tom. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. 272 b.

24. Nurmonov A., Mahmudov N., Sobirov A., Yusupova SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 3-bosqich talabalari uchun darslik. -T.: Ilm ziyo, 2010. - 160 b.

25. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 1-bosqich talabalari uchun darslik. -T.: Ilm ziyo, 2010. - 160 b.

26. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 2-bosqich talabalari uchun darslik. -T.: Ilm ziyo, 2010. - 278 b.

27. Ona tili (maktab o'quvchilari uchun). Qomus. -T.: Yangi asr avlodi. 2010. Mualliflar jamoasi. 267 bet.

28. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. -T.: O'qituvchi, 1992.

144 bet.

29. Qodirov M., Ne'matov H. Abduraimova M. va b. Ona tili. 8-sinf uchun darslik. -T.: Cho'lpon, 2010. -144 bet.

30. Qo'ng'urov R., Karimov S., Qurbonov T. O'zbek tilining funksional stillari. -Samarqand, 1985. 180 bet.

31. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar, Toshkent: "Ma'naviyat", 2003. 112 b.

32. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma.– T.: Fan va texnologiya, 2009. -416.

33. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. –T.: Fan va texnologiya, 2009. -416.

34. Tojiyev Y., Hasanova N., Tojimatov H. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. –T., Fan. 1994. -180 bet.

35. O'zbek tili grammatikasi. I tom. Morfologiya. - T.: Fan, 1975. - 612 b.

36. O'zbek tilining izohli lug'ati. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. 2006. 640 bet.

37. O'zbek tilining izohli lug'ati. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. 2008. 780 bet.

38. Sheronov B. O'zbek tili gap qurilishida lisoniy ortiqchalik: Filol.fanlari nomzodi ...diss.avtoref. –T., 1996. 24 b.

39. Shoabdurahmonov Sh., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. I qism. - T.: O'qituvchi, 1980. - 447 b.

40. Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. –T: O'qituvchi, 1983. - 180 b.

### **III. Internet saytlari**

1. <http://www.gldv.org/cms/gldv.php>
2. <http://lexikon.anaman.de/lexikon.htm>
3. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
4. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)
5. [www.kutubxona.com](http://www.kutubxona.com)
6. [www.turklib.uz](http://www.turklib.uz)
7. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)







72,1,70,3,68,5,66,7,64,9,62,11,60,13,58,15,56,17,54,19,52,21,50,23,48,25,46,27,44,29,42,31,40,33,38,35

36,37,34,39,32,41,30,43,28,45,26,47,24,49,22,51,20,53,18,55,16,57,14,59,12,61,10,63,8,65,6,67,4,69,2,71